

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA  
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

TARIX VA IJTIMOIIY FANLAR FAKULTETI

MILLIY G‘OYA, MA‘NAVIYAT ASOSLARI VA HUQUQ TA‘LIMI  
KAFEDRASI

Rahmonov Nurbekning

“5141500-Milliy g‘oya, ma‘naviyat asoslari va huquq ta‘limi ta‘lim yo‘nalishi  
bo‘yicha bakalavr darajasini olish uchun

*“Millatlararo totuvlik va jamiyat taraqqiyoti”*  
mavzusida yozgan

# BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: \_\_\_\_\_ dots.J.Dusmurotov

“Himoyaga tavsiya etildi”

Tarix va ijtimoiy fanlar fakulteti dekani

dots. \_\_\_\_\_ B.Eshev.

“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2016 yil

Qarshi – 2016

## MUNDARIJA:

|   |    |
|---|----|
| <b>Kirish</b> .....   | 3  |
| <b>I-BOB. MILLIY MUNOSABATLAR VA MILLATLARARO TOTUVLIK</b>  |    |
| 1.1. Mustaqillik va milliy munosabatlar.....  | 9  |
| 1.2. Millatlararo totuvlik tushunchasining mazmuni.....   | 20 |
| <b>II-BOB. JAMIYAT TARQQIYOTI VA MILLATLARARO TOTUVLIK</b>  |    |
| 2.1. Millatlararo totuvlikni ta'minlashda milliy o'zlikni anglashning ahamiyati.....              | 28 |
| 2.2. Milliy-madaniy markazlar faoliyatida millatlararo totuvlik g'oyasining namoyon bo'lishi..... | 40 |
| <b>III BOB. MILLATLARARO MUNOSABATLARNI TAKOMILLASHUVI</b>  |    |
| 3.1. Millatlararo totuvlik g'oyasi milatlararo munosabatlarni takomillashtirish omili.....        | 47 |
| 3.2. Yurt tinchligini ta'minlashda millatlararo totuvlikning o'rni.....                           | 54 |
| Xulosa.....   | 63 |
| Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....   | 66 |
| Ilovalar.....   | 69 |

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** Ko‘p millatli davlatlar har doim o‘z hududida istiqomat qilayotganlar turli xalq va millatlarning hamjihatligidan bevosita manfaatdor bo‘ladilar. Zero, bu ko‘p millatli davlatning barqaror rivojlanishini ta‘minlovchi muhim omil hisoblanadi.

Turli xalqlar, milatlarni umumiy, mushtarak maqsadlar, g‘oyalargina birlashtirishi mumkin. Shuning uchun, milatlararo totuvlikni jamiyat taraqqiyotini ta‘minlovchi omil sifatida o‘rganishga bugungi kunda ehtiyoj katta. Bu esa millatidan qat‘i nazar har bir O‘zbekiston fuqarosining maqsad va manfaatlarini ifoda etadigan, hamjihatlikka undaydigan g‘oya bo‘lib namoyon bo‘luvchi tamoyillarni chuqur o‘rganishni talab etadi.

Respublikamizning barcha viloyatlari, tuman, shaharlarining aholisi ko‘p millatlidir. Har bir o‘zbekistonlik o‘zaro hamjihatlik katta kuchga egaligini yaxshi biladi. Demak, ana shu hamjihatlikni totuvlikni ta‘minlovchi muhim omil sifatida o‘rganish, xulosa va amaliy takliflar ishlab chiqish so‘zsiz dolzarb ahamiyatga ega. Shu bilan birga, milliy istiqolol g‘oyasi ko‘p millatli O‘zbekiston xalqining erkin va farovon hayot qurish yo‘lidagi intilishlari, hayotiy ideallarini o‘zida aks ettiradi. Lekin millatlar o‘rtasida turli nizolarni keltirib chiqarishga urinishlarning to‘xtamayotganligini ham unitib bo‘lmaydi. Shu kabi omillarni tahlil etish ham mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Demak, mamlakatimizda ko‘pmillatli xalqlar yashashini inobatga olib millatlararo totuvlik jamiyat taraqqiyotining asosiy omili ekanligini tahlil etish bitiruv malakaviy ishimizning dolzarbligini anglatadi.

**BMIning maqsad va vazifalari.** Millatlararo totuvlikni jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida ilmiy-falsafiy tahlil etishdan iborat. Shundan kelib chiqqan holda:

-“milliy istiqlol g‘oyasi”, ”hamjihatlik g‘oyasi”, ”millatlararo totuvlik g‘oyasi” tushunchalarning ma’no-mazmunini tahlil etish;

-“jamiyat taraqqiyoti” tushunchasining mazmunini ochib berish, ijtimoiy taraqqiyotga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash;

-millatlararo hamjihatlikka erishish yo‘llarini o‘rganish;

-milatlararo hamjihatlik Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurishning muhim shartlaridan biri ekanini ko‘rsatib berish;

-millatlararo totuvlikni ko‘p millatli O‘zbekiston taraqqiyotiga xizmat qiluvchi omil sifatida yoritish;

milatlararo totuvlikni hayotga tatbiq etish bo‘yicha xulosa, amaliy taklif, tavsiyalar ishlab chiqishdek vazifalarni hal eish nazarda tutildi.

**Bitiruv-malakaviy ishning yangiligi va ahamiyati.** Jamiyat taraqqiyoti masalasini millatlararo totuvlik omili orqali o‘rganilganligi, Millatlararo munosabatlarni takomilashtirish hamda millatlararo hamjihatlik va totuvlikni ta’minlash jamiyat taraqqiyoti omili ekanligining asoslab berilganligi ishning ilmiy yangiligi hisoblanadi.

-Tadqiqotda shuningdek millatlararo totuvlik g‘oyasining ma’no-mazmuni tavsiflangan;

-ko‘p millatli davlatda milatlararo totuvlikning ijtimoiy taraqqiyotdagi o‘rni asoslangan;

-millatlararo munosabatlarni takomillashtirishga doir ayrim nazariy amaliy taklif va tavsiyalar berilgan.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati ko‘p millatli mamlakatimizda turli millatlar vakillari tomonidan millatlar totuvlikni to‘g‘ri tushunishga va o‘zaro munosabatlarda unga to‘g‘ri amal qilishga yordam berishi bilan ham belgilanadi. Tadqiqotdagi materiallardan «Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» fanining

millatlararo munosabatlarga doir mavzularini o‘rganishda va o‘qitishda foydalanish mumkin.

**Bitiruv malakaviy ishning aprobatsiyasi.** Bitiruv malakaviy ish “Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquqiy ta’lim” kafedrasida qoshidagi iqtidorli talabalarning ilmiy-nazariy seminarida ma’ruza sifatida tinglangan.

**Bitiruv-malakaviy ishning tarkibiy tuzilishi:** Kirish, uch bob, olti paragraf, xulosa, adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, \_\_\_\_ betni tashkil etadi.

## **I-BOB. MILLIY MUNOSABATLAR VA MILLATLARARO TOTUVLIK**

### **1.1. Mustaqillik va milliy munosabatlar**

Mustaqillik O‘zbekiston hayotida yangi sahifani ochdi. O‘zbek xalqi o‘zining ko‘p ming yillik tarixida birinchi marta o‘z mustaqil milliy davlatini yuzaga keltirdi. Mustaqillikning ahamiyati shundan iboratki, u millat oldidv yangi imkoniyatlar ochadi, uning rivojlanishini tezlashtiradi. Ana shu sababli har bir halq, har bir millat mustaqillikni orzu qiladi. O‘zbek xalqi ana shu orzusiga erishdi.

«Endigi dolzarb vazifamiz, - deydi Prezidentimiz I.A.Karimov, bu jarayonlarning ilmiy-nazariy asoslarini, ularning yangi-yangi qirralarini mukammal ochib berish o‘qituvchilarimiz, talabalarimizga, keng jamoatchilikka sodda, lo‘nda qilib tushuntirib berish va ularni yangi hayot, zamonalablariga javob beradigan jamiyat qurilishining faol va jo‘shqin ishtirokchilariga aylantirishdan iborat». Bu vazifami bajarish esa o‘z-o‘zidan bo‘lmaydi. Mustaqillik – imkoniyat beradi, yo‘l ochadi, ammo bu imkoniyatdan foydalanib, mamlakat taraqqiyotini yangi darajaga ko‘tarish bizga, bizning mehnatimiz, uyushqoqligimiz, tashabbuskorligimizga bog‘liq. Binobarin, gap bizning, ya’ni O‘zbekiston aholisining, uyushqoqligida, birga harakati va mehnatining samaradorligidadir. Bu borada yuksak ko‘rsatkichlarga erishmoq uchun mamlakatimizning barcha aholisi o‘z mehnatining zoye ketmasligiga.

Lekin, bu natijalarga erishishda qator qiyinchiliklarga duch kelamiz. Ulardan biri O‘zbekiston aholisining ko‘p millat va elatlardan tashkil topganligidir. Ularning har biri o‘z tili, milliy urf-odatlari, milliy madaniyati, ma’naviyati, qoida va an’analariga ega. Bu narsalarni hech bir vaqt inkor etib bo‘lmaydi. Ular bilan hisoblashmoq zarur va mukarrar. Har bir millat va elatning tili, madaniyati, urf-odatlari va an’analarini hurmat qilibgina biz ularning e’zoziga sazovop bo‘lamiz.

Yuqorida aytilgan mulohazalardan ma'lum bo'lib turibdiki, O'zbekiston aholisini jipslashtirish, birlashtirish mamlakatimiz oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir. Bu maqsadga erishmoq uchun millat nima, nima uchun har bir millat o'ziga xos til, madaniyat, urf-odatlar va an'analarga ega, ularni qanday qilib inobatga olmoq mumkin va darkor, millatlarning o'zaro munosabatlarida birinchi navbatda qanday jihatlar bilan hisoblashmoq zarur, - bularning hammasi mamlakatimizning har bir fuqarosiga ma'lum bo'lishi kerak. O'shandagina O'zbekistondagi barcha millat va elatlar orasida nizo, norozilik, g'animlik, yotsirash, xudbinlik kabi nuqsonlarga yo'l qo'yilmaydi, mamlakatimiz aholisining totuvliti, hamjihatliliigi, hamkorligi, o'zaro bir-biriga bo'lgan hurmati o'sib, mustahkamlab boradi. Yangi, mustaqil O'zbekistonni ma'naviy yangilanishsiz qurib bo'lmaydi. "Jamiyatni ma'naviy yangilashdan ko'zlangan bosh maqsad, - deydi Prezident I.A.Karimov, - yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq erkinligi va farovonligiga erishish, komil insonni tarbiyalash, ijtimoiy hamkorlik va millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik kabi ko'p-ko'p muhim masalalardan iborat".

Prezidentimiz I.A.Karimovning bu fikridan shu narsa muqarrar bo'ladiki, millatlararo totuvlik mustaqillik sharoitida yangi siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy asosga tayanib shakllanadi.

Ko'p millatli davlatda millatlararo totuvlik ijtimoiy-siyosiy barqarorlik va taraqqiyotni ta'minlashning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Uning qaror topishida jamiyat rivojlanishining ustuvor yo'nalishlari, turli ijtimoiy guruhlar va siyosiy kuchlarning pironard maqsadlarini ifodalaydigan g'oyaviy jarayonlar ham katta o'rinni egallaydi. Shunday ekan, milliy g'oyani millatlararo munosabatlarni takomillashtirishga xizmat qiluvchi omil sifatida ilmiy tadqiq etish jamiyat taraqqiyotining hozirgi davriga xos bo'lgan xususiyatlarni chuqurroq anglab yetish imkonini beradi.

Dunyoda chuqur o'zgarishlar sodir bo'layotgan hozirgi davrda Yer yuzi- ping turli nuqtalarida millatlararo nizolarni keltirib chiqaruvchi ziddiyatlar saqlanib qolmoqda. Ushbu ziddiyatlarni bartaraf qilish, ularning oldini olish kishilik jamiyati tarixiy-tadrijiy rivojlanishini ta'minlashning muhim sharti bo'lib qolmoqda. Bu amaldagi milliy siyosat modellarining mohiyati, ularning mafkuraviy asosla- rpni ilmiy-qiyosiy o'rganishni dolzarb qilib qo'yimoqda.

Millatlararo munosabatlarning ijtimoiy barqarorlik va rivojlanishga keng ta'sir o'tkaza boshlashi global, mintaqaviy va hududiy geosiyosatda etnik omil rolining oshishiga olib keldi. "Bu hol, davlatning va mintaqaning xavfsizligiga taxdid solishi mumkin bo'lgan etnik va millatlararo mojarolar kelib chiqqudek bo'lsa, ularning oldini olish maqsadida mazkur jarayonlarni muntazam ravishda ijtimoiy taxdil etib borishni zarur qilib qo'yadi"<sup>1</sup>.

"Ko'p millatlilik» aynan «millatlar»ning ko'pligini anglatadi. Ayni paytda mazkur tushunchani «ko'plab millatlar va elatlar vakillari» ma'nosida ishlatish xam keng tarqalgan.

Ko'p millatlilik sharoitida millatlararo munosabatlarni takomillashtirmay, turli millat va elat vakillarining ijtimoiy jarayonlardagi to'laqonli ishtirokini ta'minlamay turib, jamiyat hayotining har tomonlama yangilanishini tasavvur qilib bo'lmaydi. Uzoq yillar davomida kishilar ongida shakllangan stereotiplar qayta ko'rib chiqilayotgan hozirgi davrda bu ayniqsa muhimdir. Qayd etilgan holat mustaqillikka erishgan O'zbekiston milliy siyosatining mazmun-mohiyatini har tomon- lama va chuqur yoritib berishning zarurligini ko'rsatadi.

Ta'lim tizimi va ommaviy axborot vositalarining sifatiy holati millatlararo munosabatlarning xarakterini ko'rsatuvchi muhim indikator va

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. // Karimov I.A. Xaifsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lidan. 6-jild. — T.: «O'zbekiston», 1998. — 88 b.



fuqarolarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishning asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, milliy istiqloq g'oyasini ijtimoiy ongga singdirish, xalqlar o'rtasidagi do'sglikni mustahkamlashda ta'lim tizimi va ommaviy axborot vositalarinin o'zni va rolini kuchaytirish bilan bog'liq masalalarni tadqiq etish ham nazariy, ham amaliy ahamiyat kasb etadi.

Qayd etilgan omillar milliy g'oya va millatlararo munosabatlar masalasini uzviy birlikda tahlil qilish yo'lidagi urinishlardan biri bo'lgan ushbu tadqiqotning yaratilishiga turtki bo'ldi.

O'zbekiston - ko'pmillatli davlat. O'zbekiston tarixini o'rganar ekanmiz, uning diqqatimizni o'ziga tortadigan tomonlaridan biri yurtimizning, elimizning ko'pmillatliligidir. Qadimiy zamonlardan beri o'zbeklar bilan bir qatorda milliy hududimizda tojiklar, qozoqlar, turkmanlar, qirg'izlar, uyg'urlar va boshqa millatlar vakillari istiqomat qilganlar. Ulardan tashqari elimizda qo'shni davlatlardan kelgan va bu yerda joylashib qolgan eroniylar, afgonlar, hindlar, xitoylar bor edilar. Arab istilosidan so'ng Movarounnahrda ko'chib kelib, shu yerda yashay boshlagan arablar Buxoro va Qashqadaryo tomonlarida o'z qishloqlarini tashkil qilgan edilar. O'rta Osiyoni Rossiya bosib olgandan so'ng mamlakatimiz hududida ruslar, ukrainlar, beloruslar, ozarboyjonlar, Kavkaz xalqlari vakillari, Volga bo'yidan tatarlar, mordvalar, marilar, udmurtlar, boshqirdlar bilan birga olmonlar, bolgarlar, vengrlar va boshqalar mintaqamizla paydo bo'ldilar. Chorizm davrida arman xalqiga nisbatan amalga oshirilgan arman-ozarboyjon qirg'ini siyosati natijasida o'n minglab armanlar O'zbekistonga ko'chib kelishdi.

O'zbekiston aholisi ko'pmillatliligining o'sishi uzoq tarixga ega bo'lib, bu jarayonni asosan to'rt<sup>1</sup> davrga bo'lish mumkin.

---

<sup>1</sup> Xonazarov Q. Mustaqillik va milliy munosabatlarning rivojlanishi. -T.: "O'AJBNT" Markazi, 2001. 33-bet.

*Birinchi davr* chorizm istilosigacha boʻlgan asrlarni oʻz ichiga qamrab oladi. Koʻpmillatlilik u asrdsarda sekin-asta tashkil topgan. Maʼlumki, Oʻrta Osiyoni zabt etgan Iskandar Zulqarnaynning safdan chiqqan minglab jangchilari Oʻrta Osiyoning qulay iqlimi va sharoitlarini koʻrib, shu yerda oʻtroq boʻlib qolib ketgan. Yurtimizning koʻpmillatliligi ayniqsa Buyuk ipak yoʻlining ahamiyati oshishi bilan yanada oʻsdi. Sharq bilan gʻarbning muntazam aloqalarini taʼmin etishga minglab kishilar oʻz hayotlarini bagʻishladilar. Bu yoʻl koʻp tarmoqli boʻlib, daaxtning ildizidek turli tomonlarga chuqurlashib kirib borgan. Karvon egalari, xizmatchilar va xizmatkorlar yurtimizning minglab qishloqlari, mamlakat boʻylab joylashgan oʻnlab shaharlar, xunarmandchilik markazlari, savdo-sotiq rastalarini koʻrib, bu yurtga doimiy yoki oʻtroq hayot kechirish uchun uzil-kesil joylashdilar. Undan tashqari, maʼnaviyat, maʼrifat, madaniyat manbalariga oʻalarini yaqin tutishni orzu qilgan minglab turli xalq va qabila vakillari Oʻzbekistonni oʻz doimiy vatanlari sifatida tanlab, shu hududda yashay boshlaganlar. Bu jarayonlar xali Oʻzbekiston Rossiya tomonidan zabt ztilmasdan oldin boʻlgan oʻzgarishlardir. Bu narsaning taʼsiri hozirgi kunlarda ham bilinib turadi. Ana shu sababdan oʻzbek millatining oʻrtacha etnik qiyofasi xali shakllanib ulgurgani yoʻq; oʻzbeklar orasida turklarga, qozoqlarga, qirgʻizlarga, turkmanlarga, uygʻurlarga, afgʻonlarga, eroniylarga, hindlarga oʻz tashqi chizgilari bilan juda oʻxshab ketadiganlar koʻp uchrab turadi. Shu jihatdan oʻzbek millati boshqa millatlardan anchagina ayrilib turadi. Bunday hususiyatimiz tariximiz bizga qoddirgan oʻziga xos meroslardan biridir.

Oʻzbekiston aholisining koʻpmillatliligi oʻsishining *ikkinchi tarixiy pallasi* Oʻrta Osiyoning Rossiya tomonidan bosib olinishi jarayoni va mustamlakachilik yillari bilan bogʻliqdir. Istilo natijasida yurtimiz dunyoda hududi eng katta va

aholisi eng ko‘p millatli davlatning bir qismiga aylandi. Elimizga boyish, yengil hayot kechirish, yangi yerlarda o‘ziga hususiy mulk orttirish tarafdorlari ming-minglab kela boshladilar. Natijada O‘zbekistonning ko‘pmillatlilik darajasi keskin o‘zgara boshladi. 1897 yilda Rossiya Imperiyasi bo‘yicha birinchi marta aholi ro‘yxati o‘tkazildi. Uning yiqqan ma’lumotlarini sinchiklab o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, 1897 yilda Uzbekiston hududida yetmish turli millatlar va elatlar vakillari istiqomat qilgan ekanlar, Yurtimiz aholisi tarkibida turli millatlar va elatlar vakillari sonining o‘sib borishi jarayonining *uchinchi pallasi* 1917 yil Oktabr to‘ntarishi va hokimiyatni bolsheviklar bosib olgandan keyin boshlanadi. Bu jarayon bir necha yo‘nalishlarda olib borildi. Birinchidan, yangi hokimiyat o‘z mavqeini mustahkamlash va dushman kuchlarni tor-mor qilmoq uchun O‘rta Osiyoga Markaziy Rossiyadan turli harbiy qismlarni jo‘nata boshladi. Harbiylarning ko‘pchiligi markaz ko‘rsatmasi bilan yoki o‘z xohishi bilan o‘lkada doimiy yashay boshladi. Fuqarolar urushi tugagandan so‘ng o‘lkada yangi sanoat korxonalarini qurila boshladi va ularda ishlovchilarning ko‘pchiligi markazdan yuborilgan ishchilar va injener-texnik mutaxassislar edilar. Uzbekistonni “sotsializmning sharqdagi mayog‘i” qilmoq uchun o‘lkamizda, sirasini olganda, ruslashtirish siyosati amalga odirila boshladi. 1926 yilda o‘tkazilgan aholi ro‘yxati ma’lumotlariga qarab fikr yuritsak, o‘lkada 91 millat va elatning vakillari istiqomat qilishi aniqlangan. Demak 29 yil (1897-1926) oralig‘ida O‘zbekistonda istiqomat qilib turgan millatlar va elatlar soni 70 dan 91 gacha, ya’ni 30 foizga oshgan. Qisqaroq qilib aytganda, o‘ttiz yilda o‘ttiz foiz o‘sishni kurib turibmiz, desak bo‘ladi.

Navbatdagi aholi ro‘yxati 1959 yilda o‘tkazildi. O‘tgan o‘ttiz uch yil (1926-1959) nihoyatda hayajonli voqealarga to‘la bo‘ddi. Ularning orasida eng dahshatlisi 1941-1945 yillardagi urush edi. Insoniyat tarixida hech bir urushda hech bir davlat

1418 kun davom etgan janglarda 27 million 343 ming jangchi, zobit va fuqarosidan judo bo'lgan emas. Bu urushga O'zbekistondan 1.433.230 kishi safarbar qilingan. Respublika aholisining umumiy soni 6,5 million bo'lgan, shulardan bolalar va keksalarni chiqarib tashlasak, bu raqam ikki baravar qisqaradi. Demak, 3,25 million yaroqpilardan yarmi ayollar - onalar ekanligini inobatga olsak, 1,6-1,7 million harbiy xizmat yoshidagi erkaklar qoladi. Xulosa shundan iboratki, O'zbekiston aholisining deyarli 22 foizi, harbiy xizmatga yaroqlilarining deyarli 90 foizi urushga yoki ishchi batalyonlariga ketgan. Shulardan 263005 kishi halok bo'lgan, 32.670 kishi bedarak yo'qolgan, 60452 kishi nogiron bo'lib qaytgan<sup>1</sup>. Bu urush ana shunday ayovsiz qirg'in bo'ddi.

Sobiq Sovet davlatini qutqarib qolgan omillardan biri shundan iborat bo'ldiki, u o'z hududining favqulodsa katgaligidan foydalanib, jabhadan uzoq joylashgan hududlarni o'z tayanchi va qurolxonasiga aylantirdi. Shulardan biri O'zbekiston edi. O'zbekistonga mamlakatning g'arbiy qismidan, ya'ni harbiy harakatlarga tortilgan qismidan sharqqa. shu jumladan O'zbekistonga minglab zavod va fabrikalar, madaniyat muassasalari va jamoalari ko'chirildi. Sanoat korxonalarini odatda o'z injener-texniklari va mutaxassis ishchilari, ularning oilalari bilan ko'chib keddilar. Undan tashqari mamlakatning urush borayotgan g'arbiy qismidan yuz minglab fuqaroviy aholi O'zbekistonga va boshqa sharqiy respublika va viloyatlarga yo'l oldilar.

1941-1945 yillar urushi davrida O'zbekistonga mamlakatning g'arbiy qismidan qancha aholi ko'chirilganligi haqida aniq va rasmiy e'lon qilingan raqamlar yo'q, borlari ham manzarani to'la yorita olmaydilar, chunki shoshma-shosharlik vaziyatlarida aniq hisob-kitob olib borilmagan. Lekin, 1926-1959 yillar

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Turkiston umumiy uyimiz. -T.: O'zbskiston, 1995. 11 -bet.

aholi ro'yxatlari oralig'ida O'zbekistonda rus aholining salmog'i 2,7 foizdan 13,4 foizgacha o'sdi. Sobiq sovet tuzumi tomonidan amalga oshirilgan sanoatlashtirish, qishloq xo'jaligini jamoalashtirish, millatlarning o'zligini kuchsizlantirish va susaytirish maqsadida ularni mumkin qadar ko'proq aralashtirib yuborish siyosati o'z «meva»sini bera boshladi va yuqorida ta'kidlangan o'ttiz uch yil, ya'ni 1926-1959 yillar orasida respublika aholisining ko'tshillatliyligining o'sishida haqiqiy «revolyusiya» yuz berdi, deyishimiz mumkin. Faqat O'zbekistonning o'zida 1959 yilda yerli bo'lmagan 104 millat va elat vakillari, shu jumladan, 1926 yilgacha O'zbekistonda birontasi ham bo'lmagan saxurlar, abazinlar, tuvalilar, buryatlar, chukchalar va boshqalar aholi tarkibida paydo bo'ldilar.

Ko'pmillatlikning o'sishida 1926-1959 yillar O'zbekiston tarixida asosiy o'rinni egallaydi, desak ortiqcha bo'lmaydi. Shu davr ichida O'zbekistonda istiqomat qiluvchi xalqlar soni 91 dan 113 gacha yetdi, o'zbeklar O'zbekistonda 1959 yilda aholining 62,1 foizini, o'zbek emaslar esa 37,9 foizini tashkil qilar edilar O'zbek millatining ochiq ko'ngilliligi, mehmondo'stligi, bag'ri kengligi, har bir kishiga millatidan qat'iy nozar, "u ham xudo yaratgan inson" deb yaxshi ko'z bilan qarashi nagijasida O'zbekistonda barcha yerli emas xalqlarning, shu jumladan ruslarning soni va salmog'i oshib bordi.

1959 yildan boshlab O'zbekistonda yerli aholining, shu jumladan, o'zbeklarning aholi tarkibidagi salmog'i asta-sekin o'sib bormoqda. Vuning sababi yerli bo'lmagan aholining soni kamayishida emas. Ularning soni yil sayin, ozgina bo'lsa-da, oshib bormoqpa. Yerli aholi salmog'i ortib borishining sababi bu aholi sonining Yevropaliklarga nisbatan tezroq o'sishidadir. Yevropalik aholida, shu jumladan, ruslarda, har bir oilada o'rta hisob bilan 2,5 farzand bor, o'zbeklarda va boshqa yerli xalqlarda esa har bir oilada 4-5 ta farzand bor. Natijada, masalan, O'zbekistondagi ruslarning soni 1959 yildagi 1.090 mingdan 1989 yilda 1.652 minggacha o'sdi, ya'ni

66 foizga ko‘paydi. Xuddi shu davr ichida o‘zbeklarning soni 6.015 mingdan 16.650 minggacha, ya‘ni 275 foizga ko‘paydi. Demak, o‘zbeklarning soni ruslarnikiga nisbatan besh barobar ko‘proq sur‘at bilan o‘sgan. Yuqorida sanab o‘tilgan omillar ta‘sirida 1989 yilga kelib O‘zbekistonla ruslarning salmog‘i 8,3 foizga, 2000 yilda 6,5 foizga tushib qoldi. 1991 yilda O‘zbekiston mustaqil davlat deb e‘lon qilingandan so‘ng barcha sobiq respublikalarda jiddiy demofafik jarayonlar yuz berdi, shu jumladan rus aholinipg ma‘lum qismi o‘z ilk Vatani Rossiya federatsiyasiga qaytib ketishini lozim ko‘rdi. O‘zbekistondan ko‘chib ketgan ruslarning soni va salmog‘i boshqa sobiq respublikalarga nisbatan ancha oz bo‘ldi; sababi shundaki, O‘zbekiston rahbariyati va yerli aholi ruslarga qupollik, chiqishtirmaslik, g‘araz ko‘z bilan qarash hodisalariga yo‘l qo‘ymaydi. chunki ruslar asosan yaxshi mutaxassislar, O‘zbekistonning sanoati, aloqasi, naqliyoti va boshqa sohalari uchun chin yurakdan mehnat qilishga tayyor kishilardir. Hatto shunday sharoitda ruslarning ma‘lum qismi o‘z ilk Vatanini qumsab, ona yurtiga qaytdi. Bu borada hozirgi aniq raqamlar chop etilgan emas. Shu soha bilan shug‘ullanayotgan mugaxassislarning bildirishlaricha, 1991-1996 yillarda ko‘chib ketganlarning ma‘lum qismi qaytib kelgan.

O‘zbekiston mustaqilligi 1991 yshsha e‘lon qilingandai so‘ng bozor munosabatlari hayotga singishi jarayonida davlatimizda yangi davrga xos jarayonlar namoyon bo‘la boshladi; birinchidan, hududimizdan ruslarning va umumiy yevropaliklarnin ko‘chib ketishi jiddiy kamaydi. Albatta, ularning ma‘lum qismi sekin-asta borish joylarini aniqlab, ko‘chib ketmoqsalar. Bu jarayonni to‘xtatish mumkin emas, chunki odamlarning jahon bo‘ylab o‘zlariga qulay joy izlab ko‘chib ketish yoki ko‘chib kelishga xaqlari bor. Bu -demokratiyaning asosiy tamoyillaridan biridir. Ikkinchilan, ayni vaqtda O‘zbekistonga ko‘chib keluvchilarning soni ko‘chib ketayotganlardan kam emas. Ana shu sababli ko‘chib yuri1p tarozisining pallalari barovar-teng, desak bo‘ladi. Uchinchidan, MDH miqyosidagi vaziyatni qiyosiy

oʻrganib, boshqa davlatlardan, ayniqsa Rossiya federatsiyasidan ruslar bilan bir qatorda boshqa millat vakillari ham koʻchib kelmoqsalar.

Mustaqillik sharoitlarida millatlararo jarayonlarning bunday tus olishi bizni bezovta qilmaydi, chunki davlatimizda hammaga yer va suv yetarlidir. Chetdan kelsalar, barchaga eshigimiz ochiq. Huddi shu maqsadda bozor iqtisodiyoti sharoitlarida turli chet el firmalari, birlashmalari va guruhlar yil sayin koʻplab kelib joylashmoqdalar. 1897 yilda Oʻzbekiston hududida 70 millat va elat vakili, 1926 yilda 91, 1959 yilda 113, 1989 yilda 123, hozirgi paytda esa 136 millat va elat vakillari yashab turganligi maʼlum.

Oʻzbekiston hozirga zamon davlatlari orasida eng koʻpmillatlilaridan biridir.

Mustaqillik tufayli millatlararo munosabatlarni yangi pogʻonaga koʻtarish, ularni tubdan oʻzgartirib xalqning oʻz tashabbusi bilan shakllantirilgan yangi uslublar va vositalarni topish imkoniyati paydo boʻldi. Endi millatlararo munosabatlarni yuqoridan koʻrsatma bilan emas, balki har bir millat va elat vakillarining tashabbusi, aqli-zakovati ichki ruhiy talabi va ehtiyojlari asosida shakllantirish iloji yuzaga keldi. Bular<sup>1</sup>:

1) Har bir millatning tili, madaniyati, urf-odatlar va rasm-rusumlarini tiklash, tarixiy Vatan bilan aloqa va munosabatlarni jonlantirish, milliy his-tuygʻularning namoyon boʻlishiga keng yoʻl ochish;

2) Mustaqil Oʻzbekistonni oʻzining haqiqiy Vatani deb bilish va unga beminnat hamda sadoqat bilan mehnat qilish;

3) Vatan bilan mushtarak hayot kechirish, uning madaniyati tarixi va tilini oʻrganish, mustaqil davlatga oʻz nomi berilgan asosiy millat bilan doʻstlikda,

---

<sup>1</sup> Xonazarov Q. Mustaqillik va milliy munosabatlarning rivojlanishi. -T.: "OʻAJBNT" Markazi, 2001.33-bet.

hamkorliqsa va totuvlikda yashash. Ana shu uch yoʻnalishda olib borilayotgan ishlar yil sayin yangidan-yangi shakllarda, turlarda va turlarda pannaq boʻlib bormoqda, shu jumladan<sup>1</sup>:

-oʻz milliy tarixini, madaniyatini, tilini, u odatlarini oʻrganish toʻgaraklari ishlamoqsa;

-Oʻzbekiston tarixini, madaniyatini va davlat til oʻrganish toʻgaraklari faoliyat koʻrsatmoqda;

-milliy musiqa, raqs va hoʻnar toʻgaraklari oʻz ishini kengaytirmoqda;

-milliy bayram kunlariga bajshlab tadbirlar oʻgkazilmoq, festivallar tashkil qilinmoqda;

-tarixiy Vatanning rassomlari, yozuvchilari, shoirlar, oqin va baxshilari, madaniyat va siyosat arboblariiga bagʻishlaya koʻrgazmalar tashkil qilinmoqsa;

-tarixiy Vatandan kelgan siyosiy arboblal va madaniyat moyandalari bilan uchrashuvlar oʻtkazilmoqsa va hokazo.

---

<sup>1</sup> Xonazarov Q. Mustaqillik va milliy munosabatlarning rivojlanishi. -T.: "OʻAJBNT" Markazi, 2001.34-bet.



## 1.2. Millatlararo totuvlik tushunchasining mazmuni

Milliy istiqlol mafkurasininig asosiy g'oyalari va millatlararo totuvlik tushunchasi bir-biri bilan uzviy bog'liq. Bu bog'liqlikni shunda ko'ramizki g'oya, maqsadlar nafaqat ayrim insonlar, muayyan ijtimoiy guruh, ijtimoiy qatlam, davlat, jamiyatning ehtiyojlari, maqsad muddaolari, manfaatlarini, orzu intilishlarini o'zida ifoda etibgina qolmasdan, shu jamiyatda yashayotgan, turli millat va xalqlarning manfaatlariga, ularning o'zaro munosabatlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi.<sup>1</sup>

O'zbekiston mamlakatining maqsadlariga nisbatan shu mamlakatda yashayotgan har bir millat vakili befarq emas. Shu ma'noda millatlararo hamjihatlikni, o'zaro totuvlikni anglab olish talab etiladi.

Muammoni bevosita tahlil etishni avvalo "g'oya", "mafura", "jamiyat", "ijtimoiy taraqqiyot", "millat", "millatlararo hamjihatlik", "millatlararo totuvlik" tushunchalarining ma'no mazmunini ochishdan boshlash kerak.

«Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tomoiyillari» nomli risolada "Insoniyat tarixi-g'oyalar tarixi" degan ibora ishlatilgan. Shu iboraning o'zida "g'oya" tushunchasiga ham ta'rif berilgan:

"G'oya-inson tafakkurining mahsuli, milliy g'oya millat taffakurining mahsulidir. Milliy g'oya-inson va jamiyat hayotiga ma'no-mazmun baxsh etadigan, uni ezgu maqsad sari yetaklaydigan fikrlar majmuidir."<sup>2</sup>

Ko'rinib turibdiki, "milliy g'oya"ga millat tafakkurining mahsuli sifatida qaralmoqda. Shu o'rinda ayrim mulohazalarni bildirish mumkin.

---

<sup>1</sup> Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyilari. -T.: O'zbekiston, 2000, 9-bet.

<sup>2</sup> O'sha joyda, 9-bet

Birinchiidan, bunday yondashuvga muayyan ma'noda qo'shilish mumkin, chunki u millat fikri, tafakkurining mahsuli sifatida to'g'ri. Shu ma'noda turli millat nomlari bilan bog'liq holda ham milliy g'oyani tushunish mumkin.

Bizningcha, shu atamani ko'p millatli davlatga yoki jamiyatga tatbiqan qaraganda qanday bo'ladi degan savol tug'ilishi tabiiy. Bundan tashqari o'zaro muloqotlarda ham shu savol ko'pchilikni, xususan, boshqa millatga mansub bo'lganlarni ko'proq qiziqtirmoqda. Ayrim hollarda milliy istiqlol g'oyasi bu faqat o'zbeklarning milliy g'oyasimi yoki boshqa millatlarga ham daxldormi?-degan tarzda qo'yiladi.

Ikkinchiidan, milliy istiqlol g'oyasining mazmunini tushunishda, bugun sof bir millatli davlatlarni topish qiyin ekanini, ayni paytda, "ko'p millatli"lik omilini, ularni ham shu mamlakat, Vatanga daxldorligini alohida qayd etish lozim;

Uchinchiidan, mamlakat muayyan millatning nomi bilan atalishini, demak, shu mamlakatning milliy tarkibida ustuvor ulushga ega bo'lgan, tarixan yashab kelgan va yashab kelayotgan, tub xalqlar, millatlarni ham nazarda tutadi va "O'zbekiston xalqi" atamasining ishlatilishida o'ziga xos ma'no bor. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 8-moddasida "O'zbekiston xalqini, millatidan qat'iy nazar, O'zbekiston respublikasining fuqarolari tashkil etadi"<sup>1</sup> degan qoida mustahkamlab qo'yilgan.

Masalaga shu jihatdan yondoshilsa, milliy istiqlol g'oyasi tushunchasining ikki muhim jihati namoyon bo'ladi va uning ma'no mohiyatini to'liqroq tushunish imkoniyatini beradi. Demak, milliy istiqlol g'oyasi, bu bir tomondan, o'zbek millati tarixi, ma'naviy qadriyatlariga tayanishni anglatadi; ikkinchi tomondan, milliy istiqlol g'oyasi, O'zbekiston jamiyatining mafkurasi sifatida undagi "milliy" so'zi faqat bir millatni emas, balki butun bir mamlakatni, O'zbekiston jamiyati,

O‘zbekiston xalqining maqsad va intilishlarini, qarashlarini o‘zida mujassam etishini bildiradi.

Ko‘rinib turibdiki, shuning uchun milliy istiqlol g‘oyasini bir tomonlama tushunish yoki “milliy” so‘zini noto‘g‘ri talqin etish noxolis xulosalar chiqarishga olib kelishi mumkin. Bu esa o‘z navbatida, millatlararo munosabatlarga, millatlar o‘rtasidagi hamjihatlikka, totuvlikka salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

“O‘zbekiston xalqining milliy taraqqiyot yo‘lidagi bosh g‘oyasi-ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishdir. Bu g‘oya xalqimizning azaliy ezgu intilishlari, bunyodkorlik faoliyatining ma’no va mazmunini belgilaydi. Har bir inson uchun (millatidan qat’i nazar) muqaddas bo‘lgan yuksak gumanistik qadriyatlarni o‘zida mujassam etadi”<sup>2</sup>

Bunda, quyidagi jihatlarga alohida etibor qaratish lozim. Avvalo, milliy istiqlol g‘oyasi O‘zbekiston xalqining milliy taraqqiyot yo‘lidagi bosh g‘oyasi ekani ta’kidlanmoqda; bundan tashqari, har bir inson uchun muqaddas bo‘lgan yuksak gumanistik qadriyatlarni o‘zida mujassam etishga alohida e’tiborni qaratish lozim. Bu milliy istiqlol g‘oyasining ham milliy, ham umuminsoniy negizga egaligini, o‘zaro uyg‘unligini bildiradi. “Vatan ravnaqi”, “Yurt tinchligi”, “Xalq farovonligi”, “Kamil inson”, “Ijtimoiy hamkorlik”, “Millatlararo totuvlik”, “dinlararo bag‘rikenglik (tolerentlik)” nazarda tutiladi. Bu g‘oyalar milliy va umuminsoniy qadriyatga aylangan va e’tirof etilgan. Bu g‘oyalarni milliy istiqlol g‘oyalari sifatida uning bosh g‘oyasi erkinlik, ozodlik, obod va farovonlik bilan uyg‘un tarzda turganligining o‘zi mamlakatda yashayotgan har bir millatning maqsadlarini o‘zida mujassam etadi. Bu g‘oyalarda “millatlararo totuvlik” g‘oyasining milliy istiqlol g‘oyasining asosiy

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T.: O‘zbekiston, 2014, 8-modda

g'oyalardan biri sifatida alohida qayd etilishi ko'p millatli bo'lgan O'zbekiston uchun ham katta ahamiyatga ega.

Umumiy ma'noda, millatlararo totuvlikka, hamjihatlikka O'zbekistonda asosiy maqsad sifatida qaralyapti. Chunki, milliy istiqlol g'oyasining bosh maqsadini amalga oshirishda millatlararo totuvlik, hamjihatlikka erishish asosiy omildir. Hamjihatlik, totuvlik bo'lmagan joyda ulug' maqsadlarga erishish qiyin bo'ladi. Hamjihatlikka, millatlararo totuvlikka xizmat qilmaydigan g'oyani o'z navbatida bunyodkor g'oya deb bo'lmaydi. Bunday g'oyaning maqsadi ezgulikdan yiroq bo'lib, u millatlar o'rtasiga nifoq solishi mumkin. Shuning uchun ham, 130 ga yaqin millat va elat vakillari yashayotgan O'zbekiston uchun millatlararo hamjihatlik va hamkorlikning qaror topishiga xizmat qiluvchi millatlararo totuvlik g'oyasi umuminsoniy mazmunga ega bo'lmoqda.

Mavridi kelganda "Millat" tushunchasiga batafsilroq to'xtalib o'tsak.

Millat kishilarning yagona tilda so'zlashishi, yaxlit hududda istiqomat qilishi, mushtarak iqtisodiy hayot kechirishi, umumiy madaniyat va ruhiyatga ega bo'lishi asosida tarixan tashkil topgan barqaror birlikdir. Aslida, millat ma'lum hududda barqaror yashab, tarixiy taraqqiyot davomida rivojlanib kelgan kishilarning ma'naviy ruhiy birligining vujudga kelishi asosida shakllanadi. U yaqin o'tmishda takrorlanganidek, "kapitalistik jamiyatning muqarrar mahsuli" emas, balki tarixiy taraqqiyotining obektiv mahsulidir.

Millatning shakllanishida ma'naviy omillar muhim ahamiyatga ega bo'ladi, ular millatning abadiyligini ta'minlashning imkoniyatidir. Bunday omillar millat taraqqiyoti uchun zaruriy shart hisoblanadi. Aslida ham millatning abadiyligini, uning barqarorligini ta'minlashning asosiy omili-uning ichki ma'naviy ruhiy salohiyatidir. Millatlarning salohiyati, qobiliyati, matonati, tabdirkorligi va tinimsiz

mehnat bilan hozirgi zamon sivilizatsiyasi moddiy va ma'naviy madaniyati, ularni boyitish va rivojlantirish yo'llari va usullari yuzaga keltirilgan.

Mutaxassislarning hisoblaricha, Yer yuzida uch mingga yaqin millat mavjud. Ular o'z qatorida insoniyatning o'rta hisobi bilan 96 foizini birlashtiradilar, faqatgina 4 foizi elatlar va qabilalardir. Har bir millatning soni bir necha o'n mingdan bir necha yuz milliongacha boradi.

Mutaxassislar millatlarni soni jihatidan beshta guruhga<sup>1</sup> bo'ladilar:

1) Buyuk millatlar (har biri yuz milliondan ortiq millatlar: xitoylar, hindlar, indonezlar, amerikanlar, ruslar, yaponlar va boshqalar);

2) Katta millatlar (50 milliondan yuz milliongacha: inglizlar, fransuzlar, ispanlar, olmonlar, turklar, vetnamlar, meksikanlar va boshqalar);

3) Yirik millatlar (har biri 10 milliondan 50 milliongacha: o'zbeklar portugallar, qozoqlar, greklar, chexlar, argentinlar va boshqalar);

4) O'rta miyona millatlar (har biri 1 milliondan 10 milliongacha: qirg'izlar, turkmanlar, tojiklar, finlar, shvedlar, albanlar, boshqirdlar, latishlar, bolgarlar va boshqalar);

5) Kichik millatlar (har biri necha 10 mingdan 1 milliongacha: chechenlar, ingushlar, osetinlar, qalmoqlar, komilar, karellar, buryatlar, qoraqalpoqlar va boshqalar).

Shunday qilib, jahondagi eng yirik 27 millat Yer yuzi aholisining qariyb 75 foizini tashkil qiladi. Bu raqamlar millatlar naqadar xilma-xil bo'lishini ko'rsatadi.<sup>2</sup>

Endi millatlararo munosabatlarga qaytsak, millatlarning o'zaro munosabatlaridagi asosiy qoida - ularning siyosiy va huquqiy jihatdan tengligidir. Buyuk va yirik millatlarning o'z soni va imkoniyatlariga ishonib, kichik millatlarga

---

<sup>1</sup> Xonazarov Q. Mustaqillik va milliy munosabatlarning rivojlanishi. -T.: "O'AJBNT" Markazi, 2001. 22-bet.

<sup>2</sup> Naseleniya mira. -M.: Misl, 2001. s.75-76.

do‘q po‘pisa qilib, qurol kuchi bilan zabt etish va bo‘ysindirish niyatlari keyingi vaqtda Vetnam, Jazoir, Afg‘oniston, Abxaziya, Checheniston, Iroq misollarida asossizligi va amalga oshmasligi isbotlandi. Sobiq SSSRning mamlakatda eng ko‘p sonli millatga imtiyozlar tug‘dirib boshqa millatlarni mohiyatan kamsitish siyosati to‘la ravishda o‘zini fosh qildi va o‘n besh mustaqil davlatga bo‘linib ketishining asosiy sabablaridan biri bo‘ldi.

Demak, mamlakatlarning siyosiy va huquqiy jihatdan tengligini tan olish hozirgi zamon siyosatining zarur qonun qoidasi bo‘lishi shart. Ammo ayni vaqtda hozirgi zamon iqtisodi millatlar, mamlakatlar orasida o‘zaro hamkorlikni talab qiladi. Bunday hamkorlik ijtimoiy taraqqiyotning millatlar gullab-yashnashining zaruriy zaminidir. O‘zbekiston ham shu yo‘ldan borib, tobora jahon hamjamiyatiga integratsiyalashib bormoqda.

Mutaxassislar fikriga ko‘ra, insoniyatning ko‘p ming yillik taraqqiyoti asosan uch narsada mujassamlashgan, -umuminsoniy sivilizatsiya, bozor iqtisodiyoti va millatlar. Umuminsoniy sivilizatsiya jamiyat taraqqiyotining zamini, muhiti va asosidir. U shuning uchun ham, doimiy harakatda va rivojlanishdagi, bozor iqtisodiyoti munosabatlariga tayanadi, u asosida shakllanadi. Lekin bozor munosabatlarini amalga oshirib, hayotiy omilga aylantiradigan haqiqiy amaliy kuch millatlardir. Bu uch omil-sivilizatsiya, bozor iqtisodi va millatlar bir-birlari bilan chambarchas uzviy bog‘langan: birisiz ikkinchisi yoki uchinchisi bo‘lishi mumkin emas. Shunday ekan, hozirgi zamon insoniyat hayotini, jamiyat taraqqiyotini ta‘min etmoq uchun millatlarning ravnaqi, gullab yashnashi va mustahkamlanishi tabiiy jarayondir.

Tan olib aytish zarurki, dunyoqarashdagi sotsializm mafkurasining ta‘siri o‘z-o‘zidan yo‘qolib ketmaydi. Jamiyat tarixini sinfiy kurashlar tarixi, turli tushunchalar, mafkuralar, nazariyalarning to‘qnashuvi, murosasiz olishuvi sifatida yoritish va

tarixga, jamiyatga shu nuqtai nazardan yondoshish yagona to'g'ri qarash deb tushuntirish vaqti allaqachon o'tdi.

«Bizning –tojik, turkman,qirg'iz, qozoq va o'zbeklarning-tarixiy birligimiz, madaniy birligimiz, ma'naviy birligimiz, diniy birligimiz, bir so'z bilan aytganda chinakkam insoniy birligimiz haqida ko'a gapirishning xojati yo'q, -deb yozadi I.A.Karimov. - xalqlarimizning azaliy birligi va bi-biriga intilishi har bir uyda, har bir oilada, har bir qishloqda va har bir shaharda yaqqol seziladi»<sup>1</sup>.

Demak, endilikda jamiyat taraqqiyoti yo'llarini qidirish va eng oqil yo'llarini topish hammani qiziqtiradi va u barchaning vazifasidir. Shunday ekan, har bir masalaning hal etilish yo'llari bo'yicha o'nlab takliflar tushishi tabiiydir. Maqsad esa aniq-masalani hal etishning eng oqil yo'lini topish.

Siyosiy guruhlar, partiyalar va sinflar o'rtasida murosasiz raqobat davri hozirgi vaqtda demokratiyaning yangi ma'nosini tushunmaydigan jamiyat va davlatlarda bo'lishi mumkin. Mustaqil O'zbekiston bunday holatlardan xoli. U demokratiya qonun qoidalari asosida rivojlanmoqda.

Milliy istiqlol g'oyasi "agressiv millatchilik", "millatparastlik", "milliy biqqlik"ni targ'ib qilish g'oyalari bilan murosa qila olmaydi, "buyuk davlatchilik shovinizmi", "kosmopolitizm" g'oyalariga nisbatan «millatparvarlik» «milliy bag'rikenglik» «milliy hamjihatlik», "millatlararo hamkorlik", "do'stlik", "millatlararo totuvlik" g'oyalarini qarshi qo'yish talab etilmoqda.

«Fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish» konspsiyasi muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. Millatlararo hamjihatlik deganda, millatlarninig madaniyati, urf-odati, diniy e'tiqodlaridan qat'i nazar, umummaqsad yo'lida bir-birlarini tushunishlari, bir-birlarini hurmat qilishlari,

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. //Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-jild.-T.: O'zbekiston, 1996.-83b

birgalikda faoliyatda bo‘lishlari, mushtarak maqsadlarni amalga oshirishda ularning hamkorligini tushunish mumkin.

Xullas, milliy istiqlol g‘oyasi jamiyatimiz hayotida muhim o‘rin tutadi. Milliy istiqlol g‘oyasi miliy va umuminsoniy negizga asoslanishi tufayli O‘zbekiston halqining, o‘zbekning ruhiyatini o‘zida to‘liq ifoda etadi.

“Millatlararo totuvlik” g‘oyasi turli millatlar yashayotgan ko‘p millatli O‘zbekiston uchun ayniqsa muhim mezondir. U turli millatlarning maqsad va manfaatlarini ifoda etish bilan birga ularni jipslashtirib turadi va shu ma’noda O‘zbekiston oldida turgan erkin, demokratik jamiyat qurish maqsadlarini amalga oshirishda kata ahamiyat kasb etadi.



## II-BOB. JAMIYAT TARQQIYOTI VA MILLATLARARO TOTUVLIK

### 2.1. Jamiyat taraqqiyotida millatlararo totuvlikning namoyon bo'lishi

Har bir xalqning milliy madaniyatida shu xalqning milliy ruhiyati, tarixi, urf-odatları, an'anaları, tili, adabiyoti, san'ati o'z ifodasini topadi. Shuning uchun ham, milliy istiqlol mafkurasi xalqimizning tabiati, irodasi, orzu-intilishlarini ifodalaydigan quyidagi milliy xususiyatlarni zamon talablari asosida yanada boyitishni nazarda tutadi:

- xalqimiz hayotida qadim-qadimdan jamoa bo'lib yashash ruhining ustunligi;
- jamo'a timsoli bo'lgan oila, mahalla, el-yurt tushunchalarining muqaddasligi;
- ota-ona, mahalla-kuy, umuman jamoaga yuksak hurmat-e'tibor;
- millatning o'lmas ruhi bo'lgan ona tiliga muhabbat;
- kattaga hurmat va kichikka izzat;
- mehr-muhabbat, go'zallik va nafosat, xalq abadiyligining ramzi-ayol zotiga ehtirom;

-sabr-bardosh va mehnatsevarlik;

-halollik, mehr-oqibat va hokazolar.<sup>1</sup> Bundan ko'rinadiki, milliy madaniyatimiz va uning asosiga qo'yilishi kerak bo'lgan milliy g'oyamiz mustahkam o'z asoslariga tayanadi. Ayni paytda, quyidagi umumbashariy qadriyatlar ham millat g'oyasining mustahkam ildiz otishiga so'zsiz ta'sir ko'rsatadi:

- qonun ustuvorligi;
- inson haq-huquqlari va hurfiylik;
- turli millat vakillariga hurmat va ular bilan bahamjihat yashash;

---

<sup>1</sup> Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. -T.: O'zbekiston, 2000. 49-bet.

- diniy bag'rikenglik;
- dunyoviy bilimlarga intilish, ma'rifatparvarlik;
- o'zga xalqning ilg'or tajribalari va madaniyatini o'rganish<sup>1</sup>.

Milliy istiqlol g'oyasining ana shu milliy va umuminsoniy tamoyillarini o'zaro uyg'un holda qarash orqali biz «millatlararo totuvlik» g'oyasini mustahkam asosga egaligi haqida fikr yuritishimiz mumkin bo'ladi.

O'zbekistonda milatlararo totuvlikni ta'minlash bugungi kunda jamiyatning ma'naviy yangilanish jarayonlari bilan ham bog'liq. Bu o'z o'rnida jamiyatda ma'naviyatning roliga yangicha qarash, uni zamonga mos tarzda idrok etish va istiqboldagi ahamiyatini to'g'ri baholashni talab etadi.

Dunyo miqyosida kechayotgan globallashuv jarayoni, uning ijtimoiy tuzilmalarini, hayotiy asoslarini o'zgartiribgina qolmasdan, inson dunyoqarashi va tafakkuriga ham keskin ta'sir o'tkazmoqda. Ayni paytda, madaniyat va jamiyatning ma'naviy yangilanishiga daxldor bo'lgan urf-odatlar, an'analar, qadriyatlar to'g'risidagi qarashlarni, unga yangicha munosabatning shakllanishini, milliy-ma'naviy qadriyatlarning yangilanib borishini, ayrim eskirgan urf-odat ko'rinishlaridan voz kechish yoki uni yangicha idrok etgan holda zamon bilan hamnafas bo'lishiga erishishni taqozo etmoqda. Urf-odatlar qanday bo'lmasin, unga bog'lanib qolish, uni zamon talablari, milliy va ma'naviy qadriyatlarning ahamiyati, jamiyatga ta'siri nuqtai-nazaridan ko'rmaslik mumkin emas.

Shu ma'noda jamiyatning ma'naviy yangilanishi, uning taraqqiyoti to'g'risida bahs, fikrlar bildirilayotgani tabiiydir. Albatta, talab etilayotgan narsa-bu jamiyatning ma'naviy yangilanishga ehtiyoj bo'lgan qirralarini topish, ularni yanada yangilashning ichki imkoniyatlarini topishdir.

---

<sup>1</sup> Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. -T.: O'zbekiston, 2000. 50-bet.

Xo'sh, jamiyatning ma'naviy yangilanishi nimani anglatadi? Fikrimizcha, bunda bir necha yo'nalishdagi jarayonlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Bular: birinchidan, taraqqiyot talablariga javob bermay qolayotgan, xususiyatlardan xalos bo'lish; ikkinchidan, muayyan sabablar bilan unitilib ketayotgan, lekin milliy ma'naviy-hayotimizda ijobiy o'rni bo'lgan urf-odat, an'analarni tiklash; uchinchidan, milliy ma'naviy qadriyatlarga munosabatlar nuqtai nazaridan yangicha qarash; to'rtinchidan, madaniy omillarning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni va rolini to'g'ri, xolisona baholash va ijtimoiy hayotda unga yetarli darajada ahamiyat berish; beshinchidan, milliy tiklanish, uyg'onishni, g'urur va iftixor tuyg'ularini milliy ma'naviy qadriyatlar bilan uyg'unlikda ko'rish; oltinchidan, tarixiy xotiraga ijodiy qarash, uning jamiyat rivojiga ta'sirini, rolini to'g'ri baholash va oqilona munosabatda bo'lish.

Ushbu omillarining ijtimoiy munosabatlarga va millatlararo aloqalarga ta'siri, fikrimizcha, madaniyat hodisasini, uning ijobiy salohiyatini yuzaga chiqaradi. Madaniyat aslida jamiyatning, xalqlarning o'z-o'zini ta'minlovchi, ularning mavjudligin kafolatlab turuvchi tizim hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan yondashganda, jamiyatning ma'naviy yangilanib borishi madaniyatni yuksaltiradi, jamiyat mavjudligini ta'minlab boradigan o'ziga xos kafolatni yuzaga keltiradi.

Bunga zid holda ma'naviy turg'unlik holati taraqqiyotga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday holat oxir-oqibatda u yoki bu xalqlarning o'zligini yo'qotishiga yoki tarix sahnasidan yo'qolib ketishining sababi bo'lishi mumkin. Bugungi globallashtirish jarayoni ham bu hodisalarga daxldordir. Turli madaniyatlarning o'zaro bir-biriga ta'siri, har xil ko'rinishdagi hamfikrlik, uni bilishga bo'lgan intilish, bu bir tomondan, ikkinchidan, ta'sir doirasiga olish, madaniyatning haddan tashqari ommaboplashuvi, ma'nosiz umumiy xatti-harakatlarni madaniyat orqali singdirishlar, axborot reklamalardagi bir tomonlamaliklar, unga bilib-bilmasdan ko'nikish, ta'sirga

tushish, taqlid qilish hollari, ayniqsa, yoshlarni ko‘r-ko‘rona kosmopolitik madaniyat qoliplarini o‘zlariga namuna qilib olishlari ko‘ngilsiz holatlarga olib kelishi mumkin.

Albatta, turli xalqlarning milliy o‘z-o‘zini anglashi, o‘zligini saqlab qolishga harakatining ortib borishi tendensiyasi bilan birga o‘zaro mushtaraklikning kuchayib borayotganligi ham obektiv jarayondir.

Madaniyatning an’anaviy ko‘rinishi bilan birga bugungi fan-texnika taraqqiyoti bilan uyg‘unlashgan ko‘rinishi ham mavjud. Ana shu nuqtai nazardan jamiyatning ma’naviy yangilanishi hodisasiga qarash muhim ahamiyatga ega. Shu holda yagona madaniy qadriyatlar qaror topadimi yoki turli madaniyatlar yashab qoladimi?- degan masala kelib chiqadi.

Aytish mumkinki, hozirgi paytda yangi texnologiyalar “an’anaviy” madaniyatlarga o‘zining faol ta’sirini ko‘rsatmoqda. Lekin ayrim hollarda u vayronkor kuchga ham ega bo‘lmoqda.

Bugungi kunda madaniyatning mohiyat-mazmuniga qiziqish ortib bormoqda. Shu o‘rinda ziyolilar, aqliy mehnat sohiblarining madaniyatni tushunishga, uni hozirgi kunda yangicha idrok etish va uning istiqboldagi rolini yana bir bor o‘ylab ko‘rishga bo‘lgan intilishining ortib borayotgani ko‘pgina shart-sharoitlar bilan belgilanadi.

Hozirgi zamon sivilizatsiyasi bizni o‘rab turgan dunyoni, ijtimoiy institutlarni, hayot va tafakkur tarzini, turmush negizlarini shiddat bilan o‘zgartirmoqda. Yashashga bo‘lgan intilish shunga olib kelgan va shunday davom etmoqda. U har xil shart-sharoitlar, sur’atlar, o‘zgarishlar ko‘rinishida sodir bo‘layotir. Shu asnoda madaniyatning istiqboli va taraqqiyoti to‘g‘risida bahslar kuchaymoqda. U yagonami, rivojlanish istiqboli umumiy mi, yoki xilma-xil oqimlarga egami qabilidagi tortishuvlar kuchaymoqda. Shundan kelib chiqqan holda madaniyatning mohiyatiga yetish va uning ichki imkoniyatlarini topishga intilish mavjud.

Madaniyat-xalqning donishmandligini anglashga xizmat qiladigan kalitdir. Jamiyat tarixida qadimdan namoyon bo'lgan, lekin XX asrda kutilmagan darajada kuchaygan ichki konflikt turli xalqlar milliy tafovutlarining ayrim jihatlarini o'zaro yaqinlashtiradigan integratsiya jarayonlarining kuchayishiga sabab bo'lmoqda.

Shu vaqtning o'zida ikkinchi tomondan, unga zid holda xalqlarning madaniy o'z-o'zini anglashi, o'zligini saqlab qolishining o'sish tendensiyasi ham kuzatilmoqda.

Nima bo'lganda ham ijtimoiy hayotning internatsionallashuvi yuksak sur'atlar bilan amalga oshmoqda, har bir xalq va millatning milliy o'zligini anglash jarayoni kuchaymoqda.

“Ma'lumki, modernizatsiya nazariyasi, ya'ni zamonaviylashuvning hozirgi zamon nazariyasi xalqlarning taraqqiyotini umumjahon miqyosida olib qaraydi va an'anaviy jamiyat ijtimoiy tuzilishining hozirgi zamon industrial va post industrial jamiyatiga dunyo miqyosida o'tish deb qaraydi”.<sup>1</sup>

XX asrning 70-yillarda industrial jamiyat g'oyasining bir ko'rinishi sifatida “postindustrial jamiyat” nazariyasi yuzaga kelgan edi. Bu konsepsiyaga ko'ra, texnologik o'zgarishlar nafaqat jamiyatning ishlab chiqaruvchi kuchlarida, balki insonlar turmush tarzining barcha sohalarida chuqur o'zgarishlarga olib keladi. Shu bilan bog'liq holda postindustrial jamiyatga yaqinlashish jarayoni millat taraqqiyotiga uzviy bog'liq tarzda kechadi. Hozirga kelib esa “tarixning dioxronik davri” shakllanmoqda, ya'ni turli xil madaniy davrlar mavjud davr oxirlab qolmoqda, yangi ming yillikda yagona ijtimoiy-madaniy qadriyat asosida turli madaniyatlarning qo'shilishlari turibdi, deb faraz qilinmoqda.<sup>2</sup>

---

<sup>1</sup> Toffler A. Tretya volna. -M.: Misl, 1990. s.170-179.

<sup>2</sup> O'sha asar. s.175-179.

Odatda g'arb industrial jamiyati "an'anaviy", "osiyocha" va boshqa "kamharakatchan", jamiyat tiplariga qarama-qarshi qo'yiladi. Aslida esa, jamiyat hayotiga an'analar bilan birga yangi texnologiyalar ham faol ta'sir ko'rsatishi muqarrarligi bilan hisoblashish zarur. Bu ko'proq g'arb madaniyati modeliga xos. Ayni paytda sharq modeli an'analarni va yangiliklarni birga qo'shib olib borish imkoniyati mavjudligini ko'rsatadi. Masalan, Yaponiya modeli -madaniy tarixiy o'ziga xoslik bilan ilg'or g'arb texnologiyalarini qo'shib olib borishga yorqin misoldir.

An'anaviy jamiyatlar hozirgacha juda sekin o'zgarimoqdalar, lekin bu jamiyatda konservatizm ruhining ustuvorligini bildirmaydi. O'zbekiston "an'anaviy" jamiyatdan yangi zamonaviylashgan jamiyatga o'tib bormoqda. Unda an'anaviylik bilan zamonaviylik uyg'unlashib bormoqda, deb aytish mumkin.

An'anaviy jamiyat uchun muayyan etnopsixologik standartlar, xulq-atvor normalari xosdir. Bular: a) doimiylikka intilish; b) barqarorlikka bo'lgan xoxish; s) yangiliklarga asta-sekin kirishish ko'nikmalari; d) yuqori darajadagi vorisiylik va b.

G'arb madaniy taraqqiyotning antik va xristian an'analari sinteziga asoslangan, texnologik sivilizatsiyaning chuqur mentalitetini yaratgan o'ziga xos tipidir. Buning natijasiga ko'ra g'arbda individualizm qadriyati keng tarqalgan. Kollektivizm (jamoaviylik) esa asosan sharq madaniyatiga xosdir. Demak, sivilizatsion rivojlanishning bu ikki tipi o'zaro farqlanadi. (an'anaviy jamiyat va texnologik jamiyat), ayni paytda, ular bir-biri bilan uzviy bog'liq, bir-biriga ta'sir ko'rsatadi hamda turli xil hamjamiyatni yaratmoqdalar. Yangi mustaqil davlatlar bunga misol bo'la oladilar, deb o'ylaymiz.

Yuqorida qayd etilgan holatlar bilan uzviy bog'liq holda milliy o'zlikni saqlab qolish masalasiga ham to'xtalib o'tish o'rinlidir. Globallashuv jarayoni xalqlarning turmush tarzida va madaniy o'z-o'zini namoyon qilishida, o'zgarishlar sodir

qilmoqda. Bu jarayon tufayli xalqlarning tarixiy xotirasi dolzarblashmoqda. Yaqingacha milliy etnik xususiyatlarning yo‘qolib borishi, urbanizatsiya, ommaviy migratsiya, milliy madaniyat bilan bog‘liq bo‘lgan obektiv jarayon deb hisoblangan bo‘lsa, endilikda jahon hamjamiyati

Sayyoramizda o‘zining betakror madaniy va ma’naviy qadriyatlarga ega bo‘lgan 1600 dan ortiq etnik guruhlar yashaydi<sup>1</sup>.

Ularning har biri o‘ziga xos tarixga ega. Har biriga milliy g‘urur xos. Bu tabiiy, albatta. Milliy o‘zlikni anglash odamlarning o‘ziga xos xususiyatlari va an‘analarini saqlab qolish yo‘lidagi tabiiy intilish, millatni saqlab qolishga qaratilgan obektiv ehtiyojdir. Har qanday millat, miqdoridan qat’i nazar, insoniyatning boyligi hisoblanadi. Har qanday millatning tili, madaniyati va boshqa xususiyatlarining yo‘q bo‘lib ketishi Yer yuzidagi madaniy va genetik fondning, shaxs imkoniyatlarining qashshoqlashuviga olib keladi.

Millatning o‘zini-o‘zi anglashi uning millat sifatida shakllanish tarixi, ajdodlari, hayot tarzini, mehnat faoliyatini, tili, urf-odatlarini va an‘analarini, diniy, milliy-ma’naviy qadriyatlarini bilish orqali shakllanadi. Milliy o‘zlikni anglash shu ma’noda millatlarning tadrijiyligini saqlaydi. Shu bilan birga milliy o‘zlikni anglash jarayoni ko‘p qirrali bo‘lib, xilma-xil komponentlarni o‘z ichiga oladi. Zero, xalqlar tarixiy rivojlanishini o‘ziga xos tarzda, tadrijiy rivojlanishi uning o‘ziga xos qonuniyatidir. U xalqlarning hohish-irodasi, erkiga o‘z taqdirining o‘zi hal etishi huquqiga mos tarzda namoyon bo‘ladi.

Dunyodagi deyarli barcha xalqlarning milliy o‘zlikni anglash yo‘li tarixan murakkab kechgan. Buni o‘zbek xalqi hayoti tarixida ham ko‘rish mumkin. Shu ma’noda milliy o‘zlikni anglashni murakkab tarixiy jarayon deb baholab, uni ikki xil

---

<sup>1</sup> Karimov I. A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka taxdid: barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.: O‘zbekiston, 1998. 77-bet.

ma'noda tushunish mumkin: 1) turli xalqlar, millatlarning o'z o'rnini, nufuzini, o'ziga xos bo'lgan ma'naviy borlig'ini anglashi; 2) mamalakat fuqarosi, xalq, umuman etnos sifatida muayyan davlat yoki mamlakatga aloqadorligi, mansublik hissi tuyg'usini his etish.

“Milliy o'zlikni anglash” tushunchasi ijtimoiy-siyosiy tushuncha sifatida ham namoyon bo'ladi. Xususan, O'zbekiston xalqining milliy o'zligini anglashi bilan bog'liq bo'lgan jarayonda bir-biriga to'g'ri kelmaydigan ikki xil rivojlanish holati kuzatiladi: 1) xalqlarning milliy o'zligini anglash asosida rivojlanishi; 2) xalqlarning milliy o'zlikdan begonalashgan holatda rivojlanishi.

Buni, O'zbekiston milliy davlatchiligining shakllanishi tarixi bilan bog'liq tarzda milliy o'zlikni anglashning shakllanishini ko'rish mumkin. O'zbekistonning milliy davlatchilik tarixi 2700 yilni o'z ichiga oladi.<sup>1</sup>

Lekin, O'zbekiston xalqi o'z tarixida ko'pgina bosqinlarni boshidan kechirgan. Bularga Aleksandr Makedonskiy, arablar istilosi, Chingizxon bosqini, Rus chorizmi va sho'ro mustamlakasi va boshqa davrlarni keltirish mumkin. Bu davrlarda, O'zbekiston xalqi ajdodlari hayotiga begona madaniyat, turmush tarzi, urf-odatlar, davlat boshqaruvi kirib kelgan, o'zlikni anglashga o'zining salbiy ta'sirini o'tkazgan. Buning oqibati o'laroq xalqlarning hayotida milliy o'zlik negizlaridan begonalashish holati ham kuzatiladi. Ammo xalqimiz millat sifatida o'zligini, o'z milliy qadriyatlarini, ajdodlarining nomlarini saqlab qolishga harakat qilgan, o'zligini unutib yubormagan.

O'zbekiston xalqi To'maris, Spitamen, Shiroqning nomlarini unutgani yo'q. Shuningdek, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Hoja Bahovuddin Naqshband, Hoja Ahmad Yassaviy, Al-Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino Jalolidin Manguberdi, Amir

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.: 1999. 127-bet



Temur, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa ko‘plab buyuk ajdodlarimiz xalqimizning milliy iftixori bo‘lib qoldilar. Ularning nomlari, jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga qo‘shgan buyuk hissalar hozirgi kunda butun dunyoga ma‘lum. O‘zbekistonliklar ularning ma‘naviy merosi, ularning avlodlariga mansub bo‘lgani uchun haqli ravishda faxrlanadi.

Ma‘lumki, rus chorizmi va mustabid Sovet davrida milliy o‘zlikni anglashga zid bo‘lgan siyosatni amalga oshirib, yagona mafkura singdirildi. Xalqimizning erki, sha‘ni, or-nomusi toptaldi.

O‘zbekiston davlat sifatida o‘zining haq-huquqlaridan, suverenitetidan mahrum bo‘ldi. O‘z yeriga o‘zi egalik qila olmadi. Markaz siyosati hamma narsani belgilab berdi. Rejali, ma‘muriy boshqaruv uslubi joriy etildi. Xalqimiz o‘zining tarixidan mahrum bo‘lib yashadi. O‘zbekiston tarixi noxolis o‘rganildi va asosan Sovet tarixidan iborat bo‘lib qoldi. Kommunistik mafkura milliy xususiyatlarni, qadriyatlarni hisobga olmadi. Xalqimiz o‘zining madaniy merosidan ajratib qo‘yildi. O‘zbek tili qadrsizlandi.

Bunday hodisalarga davlatimiz rahbari I. A. Karimov o‘zining keskin bahosini berdi. “Tarix xotirasi, xalqning jonajon o‘lkaning, davlatimiz hududining xolis va haqqoniy tarixini tiklash milliy o‘zlikni anglashni, ta’bir joiz bo‘lsa, milliy iftixorni tiklash va o‘stirish jarayonida g‘oyat muhim o‘rin tutadi”<sup>1</sup>.

Tarixiy tajriba va an‘analarning merosi bo‘lib o‘tishi milliy o‘zlikni anglashda alohida o‘rin tutadi. Uni buzishga bo‘lgan har qanday urinish zararlidir. Buyuk mutafakkir A.N. Farobiy «Fozil odamlar shahri» nomli asarida fozil bo‘lmagan shaharlarga tarixda «begona g‘oyalar asta kirib olib, uning aholisi qarashlarini butunlay o‘zgartirib yuborganligini» qayd etadi.<sup>2</sup> Darhaqiqat, g‘oyalar kishilar

---

<sup>1</sup> Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. - T.: O‘zbekiston, 1999. 153-bet.

<sup>2</sup> Farobiy. Fozil odamlar shahri. -T.: 1996. 76-bet.

qarashini o'zining milliy-ma'naviy negizidan ajratib, uni butunlay o'zgartirib yuborsa, demak u zararli g'oyadir. Bunday g'oya o'zlikni anglashga emas, aksincha milliy asosdan begonalashishga sabab bo'ladi, turli xil beqarorlikni keltirib chiqaradi.

XIX asr oxiri XX asr boshida yashab ijod qilgan ma'rifatparvar mutafakkirlarimiz ham millat tarixi, qadriyatlarini chuqur o'rganishga undaganlar.

Aslida, ma'rifatning ma'nosi ham o'zlikni anglash bilan bog'liq. Behbudiy milliy o'zlikni anglash uchun ilm-ma'rifat yo'lidan boshqa yo'l yo'q deb hisoblagan. "Hozir yangi va boshqa-boshqa zamon. Bu zamonda ilm va hunarsiz xalqning boyligi, yeri va asbobi kundan kun qo'ldan ketgandek, axloq va obro'yi ham qo'ldan chiqar. Hatto dini ham zaif bo'lur. Buning uchun biz musulmonlarni o'qitmoqqa say qilmog'imiz lozimdur. Vaholanki, dini sharafimiz har nav naflik ilm o'qimoqni beshikdan mozorg'acha bizlarga farz qilgandir».<sup>1</sup>

Fitrat mustamlakachilik siyosati mohiyatida istilo qilingan mamlakatda manqurtlarni to'plashning butun boshli dasturini amalga oshirish rejasi yotganini anglagan. Buning ibtidosi o'lkada madaniyat tarqatish bahonasi bilan joriy etilgan rus-tuzem maktablari orqali amalga oshirilgan. Chunki, chor hukumatiga bu kerak edi. Uzoq muddatga mo'ljallangan istilochilar siyosatiga xayrihohlik bildiruvchi rus madaniyati ruhida tarbiyalangan ziyolilar ham kelajakda mustamlakachilarning ta'blariga mos kelishlari kerak edi. Istilochilar aksariyat hollarda bu maqsadlariga erishdilar.

Ushbu siyosat keyinchalik sho'ro davrida ham davom ettirildi. Ushbu siyosat oxir-oqibatda ko'plab ziyolilar o'z ona tilini deyarli unutib qo'yishiga, milliy qadriyatlar, urf-odatlarini mensimasliklariga, o'zimizga xos bo'lmagan odob va axloq mezonlarini tarbiyaning bosh mezoni deb bilishlariga sabab bo'ldi. O'z ona tilisini

---

<sup>1</sup> Ma'naviyat yulduzlari: (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar allomalar, adiblar). To'plovchi va ma'sul muharrir. M.M. Xayrullayev. -T.: 2001. 372-377 betlar.

bilmaydigan, ayni vaqtda, bir necha xorijiy tillarni biladigan, milliy qadriyatlarni mensimaydigan “zamonaviy kishilar” yetisha boshladi.

Mustaqillik sharofati bilangina bunday salbiy holatlarning oldi olindi, avj ola boshlagan manqurtlashuvga chek qo'yildi. Mustaqillik O'zbekiston xalqi tarixida yangi davrni boshlab berdi. Bu davr milliy mustaqillikka erishish, milliy-ma'naviy qadriyatlarni tiklash milliy o'zlikni anglash davri sifatida alohida mazmunga ega. Ma'naviy qadriyatlarning tiklanishi hozirgi dunyo va axborot sivilizatsiyasi qadriyatlariga moslashishni ham anglatadi. Bizning an'anaviy qadriyatlarimizni hozirgi dunyo demokratik qadriyatlari bilan o'yg'unlashtirish, kelajakda yanada ravnaq topishimizning, O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga qo'shilishining garovidir.

“Milliy o'zlikni anglash” tushunchasi bilan “o'z-o'zini anglash” tushunchalari o'rtasida umumiy va o'ziga xos tomonlar mavjud. “O'zligingni angla” degan atama nisbatan keng tushuncha. Milliy o'zlik uning bir jihati, xolos. Inson hayoti davomida o'z-o'zini, milliy o'zlikni anglash orqali, insoniy mohiyatni, inson sifatida yashashning ma'no-mazmunini anglab boradi. Bu o'zlikni anglashning umumbashariy ahamiyatga egaligini ko'rsatadi. Bunday o'zlikni anglashning ikki negiziga ega ekanini, uning bir tomondan, milliy-ma'naviy qadriyatlarga tayanishi va ikkinchi tomondan, umumbashariy ma'no va qadriyatlarga tayanishini ko'rsatadi. O'zlikni anglash har ikki jihat bilan uyg'unlashsagina umumbashariyat taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Xullas, milliy o'zlikni anglash o'tmishni bilish, tarixiy voqealardan saboqlar chiqarish orqali shakllanadi. Milliy o'zlikni anglash o'tmishni bugungi kun bilan bog'lay olish orqali ham shakllanadi. Milliy o'zlikni anglash istiqbolga, kelajakka nazar tashlash, dunyo ilmi erishgan yutuqlarni egallash, uni hayotga tatbiq etish

orqali amalga oshadi. Milliy o'zlikni anglashda bu o'ziga xos zanjir bo'lib, u xalqlarning tarixini bilish, ona tiliga hurmat, o'z sha'ni va qadr-qimmatini qadrlay olish, o'z avlod-ajdodlarining xotirasini qadrlash, o'z milliy va ma'naviy qadriyatlariga tayangan holda dunyo taraqqiyotida o'ziga xos o'ringa ega bo'lishni anglash tuyg'usi sifatida namoyon bo'ladi. O'zlikni anglash turli madaniyatlarning o'zaro to'qnashuviga emas, aksincha ularning bir-birni boyitishga, to'ldirishga, ezgulikka xizmat qiladi. O'zlikni anglash inosoniyat oldida ham o'ziga xos ma'suliyat sezish tuyg'usini beradi. Milliy o'zlikni anglash va uning shakllanish jarayoni qanchalik murakkab va xilma-xil bo'lmasin, har bir xalqning, o'z "meni"ni namoyon etish orqali, dunyo xalqlari orzu qilib, qadrlab kelayotgan mustaqillik, demokratiya va erkinlik kabi munosabatlar bilan uyg'un bo'lishi va shunga xizmat qilishi zarur. Bu taraqqiyotning ayni paytda sivilizatsiyalar rivojlanishi va xilma-xilligini saqlab qolishning o'ziga xos ma'naviy kafolatidir.

## **2.2. Milliy-madaniy markazlar faoliyatida millatlararo totuvlik g‘oyasining namoyon bo‘lishi**

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning oliy maqsadi-xalqimizga har bir fuqaroga munosib turmush sharoiti yaratishdan iborat. Bu esa millatidan qat’i nazar har bir fuqaroda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyatini anglab yetishga va uning faol ishtirokchisiga aylanishiga xizmat qiladi. Bunda milliy g‘oyaning o‘z o‘rni bor. Xususan, komil inson g‘oyasi-ham milliy, ham umuminsoniy mohiyatga ega bo‘lgan, odamzotga xos eng yuksak ma’naviy va jismoniy barkamollikni mujassam etgan, uni hamisha ezgulikka undaydigan olijanob g‘oyadir.<sup>1</sup> Ijtimoiy hamkorlik esa-murosa falsafasi bo‘lib, xilma-xil fikr va qarashlarga ega bo‘lgan, turli millat, irq va dinga mansub bo‘lgan shaxs va guruhlarning umumiy maqsad yo‘lidagi hamjihatligini ta’minlaydi.

Demak, ko‘p millatli bo‘lgan O‘zbekiston uchun “xalq farovonligi”, “ijtimoiy hamkorlik” va “komil inson” g‘oyalari biron bir inson, guruh yoki millatning manfaatiga emas, barcha xalq va elatning maqsad va manfaatlariga yo‘naltirilganligi bilan ajralib turadi.

Milliy Madaniy Markazlar O‘zbekistonda istiqomat qilib turgan barcha millatlar, elatlarning madaniyat, ma’naviyat, milliy urf-odatlar va an’analar sohasidagi o‘zlariga ijtimoiy-ixtiyoriy tashkilotlari ekanliklarini o‘zlarining samarali va serqirra faoliyatlari bilan isbotladilar. Yuqoridan berilgan ko‘rsatma asosida emas, balki pastdan, milliy guruhlar ommasi tomonidan ko‘rsatilgan tashabbus acoci ishni tashkil etayotganliklarini inobatga olib, 1989 yil O‘zbekiston Madaniyat ishlari vazirligi qoshida<sup>1</sup>, ular faoliyatini muvofiqlashtirish va uyg‘unlashtirish maqsadi Respublika Millatlararo Madaniyat Markazi tashkil qilingan edi. Milliy madaniy markazlar soni

---

<sup>1</sup> Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T.: O‘zbekiston, 2000. 55-56-betlar.

va faoliyat turlarini o'sib borayotganini ko'zda tutib, 1993 yil 13 yanvarida Respublika millatlararo madaniy markazi Respublika Millatlaro Baynamilal Madaniy Markazga aylantirildi. Natijada tashkilotlar mustaqil nodavlat muassasaga aylandi. O'zbekistonda demokratik davlat va fuqaroviy jamiyat talablari darajasida milliy siyosat yurgizishga xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari milliy istiqlol g'oyasini insonlarning kundalik turmushi, hayot tarzi, farovonligini moddiy va ma'naviy jihatlari bilan uzviy bog'liq ekanligini ham nazarda tutishi kerak. Turli millat vakillari tomonidan buni to'g'ri anglab yetilishi, milliy istiqlol g'oyasini to'g'ri tushunib olishga yordam beradi.

Milliy istiqlol g'oyasi O'zbekiston jamiyatining ustuvor maqsad va manfaatlarini o'zida ifoda etadi "bu g'oya - har bir millat vakilining iste'dodi va salohiyatini to'la ro'yobga chiqarish uchun sharoit yaratadi va uni vatan ravnaqi, yurt tinchligi, kabi ezgu maqsadlar sari safarbar etadi."<sup>2</sup>

Darhaqiqat har bir millat vakili o'zining aql zakovatini O'zbekistonda halq farovonligini oshirish uchun safarbar etishi mamlakatning o'ziga xos boyligidir. O'zbekistonning jug'rofiy -strategik imkoniyatlari va boy tabiiy xom ashyo-resurslaridan foydalanishi ham buni taqozo etadi. Mustaqillik sharoitida O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy hayotida bo'layotgan o'zgarishlar, bozor iqtisodi munosabatlariga asoslangan demokratik jamiyat qurish vazifalarini amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. Masalan, hozirga qadar 2,7 mingdan ziyod turli foydali qazilma konlari va ma'dan namoyon bo'lgan istiqbolli joylar aniqlangan. Ular 100 ga yaqin mineral xom ashyo turlarini o'z ichiga oladi. Shundan 60 dan ortig'i ishlab chiqarishga jalb etilgan. 900 dan ortiq kon qidirib topilgan bo'lib, ularning tasdiqlangan zahiralari 970 mlrd AQSH dollarini tashkil etadi. Respublika oltin zahiralari bo'yicha dunyoda 4-

---

<sup>1</sup> Xonazarov Q. Mustaqillik va milliy munosabatlarning rivojlanishi. -T.: "O'AJBNT" Markazi, 2001. 39-bet.

<sup>2</sup> Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. -T.: O'zbekiston, 2000. 59-bet.

o‘rinda, uni qazib olish bo‘yicha esa 7-o‘rinda, mis zahiralari bo‘yicha 10-11 o‘rinda, uran zahirasi bo‘yicha 7-8 o‘rinda turadi. Ulardan foydalanishda turli millat vakillari o‘z salohiyatlarini ishga solmoqdalar.<sup>1</sup>

Mamlakatimizda mavjud turli milliy-madaniy markazlarning millatlararo totuvlik g‘oyasini hayotga joriy etishdagi o‘rni katta. Masalan, O‘zbekistonda faoliyat ko‘rsatayotgan Rus madaniy markazi millatlararo totuvlik va hamjihatlikni amalga oshirishda hamda milliy madaniyat, tillar, urf-odat va an‘analarni rivojlantirishda faol ishlar olib bormoqda.<sup>2</sup>

Ayni paytda, mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayotida sodir bo‘lgan o‘zgarishlarni rus millatiga mansub xalqlar tomonidan bir xilda qabul qilinmaganligini ham qayd etish ham zarur. Bu O‘zbekistonda o‘zbek tilining davlat tili ekanligi to‘g‘risidagi qonunning qabul qilinishi bilan ham bevosita bog‘liq. Masalan, bu holat 1991-1994 yillarda Rossiyaga migratsiya oqimining kuchayganligida aniq ko‘rinadi. Shu yillarda Rossiyaga 400000 kishi ko‘chib o‘tgan, ularni asosan rus millatiga mansub bo‘lganlar tashkil etadi.<sup>1</sup>

Shu sababga ko‘ra O‘zbekistonda ruslarning soni 1989-1996 yillarda ancha qisqardi va 1650 ming kishidan bir million kishiga tushdi. Agar, 1979 yilda umumiy aholiga nisbatan ularning ulushi 10,8 foizni, 1989 yilda 8,3 foizni tashkil etgan bo‘lsa, hozirgi paytda 4,1 foizni tashkil etmoqda. Albatta, foiz nisbatining o‘zgarishiga boshqa omillar, shuningdek tub aholining tabiiy o‘sishi ham ta’sir ko‘rsatadi.

Rus millatiga mansub fuqarolar uchta kategoriyaga mansub.1) Kamsonlilar qatlami bo‘lib, o‘zlarining hohish istaklari bilan O‘zbekistonga kelib qolmaganlar kategoriyasi ekanini, ular O‘zbekistonga komandirovka qilingan ilmiy xodimlar,

---

<sup>1</sup> Karimov I. A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida , 6-jild. -T.: O‘zbekiston, 1998. 192-193 betlar.

<sup>2</sup> O‘zbekiston millatlararo hamjihatlik yo‘lida. -T.: Universitet, 1996. 119-bet.

ishlab chiqaruvchilar, quruvchilar, huquqshunoslar, “siyosiy desant” lar deb ataydi; ular o‘zlarini vaqtincha kelganlar, deb hisoblaganlar, ular uchun mahalliy xalqning madaniyati, urf-odat va an’analarini o‘zlari uchun begona deb hisoblaganlar. Va ular O‘zbekistonni birinchilardan bo‘lib tark etdilar.<sup>2</sup> 2) O‘zining son jihatidan birinchi guruhdan ko‘pligi bilan ajralib turadi. Ular og‘ir paytda, masalan, urush yillarida, tiklanish yillarida va zilziladan keyin kelib qolganlardir. Ular O‘zbekistonga o‘zlarining ikkinchi ona Vatani sifatida qaradilar. O‘zlarining mehnatlari bilan yurt ravnaqiga o‘z xissalarini qo‘shib keldilar. 3) Eng ko‘p sonli bo‘lib, unda ruslar o‘z hayotini, taqdirini O‘zbekiston bilan mustahkam bog‘langanlar hisoblanadi. Ular asosan XIX asrning oxirgi choraklarida O‘zbekistonga kelganlar. Ularning otabobolari, qarindosh-urug‘lari O‘zbekiston tuprog‘ida ko‘milgan. Ularning bolalari, nabiralari shu yerda tug‘ilib voyaga yetgan. Ular shu yerdan urushga ketgan, O‘zbekistonni o‘zlarining Vatanlari deb biladilar.

O‘zbekistonda o‘zlarining ona tillarini saqlab qolishda ruslar birinchi o‘rinda turadilar va 99,9 foizni tashkil etadi. Bu raqam, qozoq, tojik va qirg‘izlarda 90-95 foizni, yevreylar, ukrainlar, uyg‘urlarda 30-40 foizni tashkil etadi.

Bugun har bir mamlakat o‘zining milliy g‘oyasi to‘g‘risida qayg‘urmoqda<sup>1</sup>. O‘zbekistonga nisbatan bugun milliy o‘zlikni anglash va tiklanish, vatanparvarlik va millatparvarlik, hamjihatlik va hamkorlik g‘oyalari bilan, shuningdek milliy ma’naviyat, qadriyatlarni tiklash, urf-odat va an’analariga bo‘lgan munosabatni o‘zgartirish bilan bog‘liq holda O‘zbekistonning kelajagi to‘g‘risida qayg‘urish, erkin va farovon, Ozod va Obod Vatan qurish g‘oyalarini birga idrok etish, uni chuqur anglash jarayoni ketmoqda, deb aytish mumkin. Xususan, rus madaniy markazi 1994 yil martdan buyon millatlararo totuvlikni ta’minlash borasida faol qatnashib

---

<sup>1</sup> O‘sha asar. 120-bet.

<sup>2</sup> O‘zbekiston millatlararo hamjihatlik yo‘lida. -T.: Universitet, 1996. 121-bet.



kelmoqda. Mustaqillik kunini, O‘zbekiston Konstitusiyasi, “Navro‘z”, Yangi yil, xotin-qizlar, o‘qituvchilar va murabbiylar, xotira va qadrlash kunlarini birgalikda bayram qilishda, milliy markaz alohida faollik ko‘rsatmoqda. Boshqa milliy markazlar ham o‘zlarining milliy urf-odat va an‘analarining milliy madaniyatlarini tiklash va rivojlantirish, uning milliy va munosabatlarini bir-biri bilan bog‘lab olib bormoqdalar.

Respublika milliy-madaniy markazlari ko‘plab yo‘nalishlarida millatlararo totuvlikni mustahkamlashga o‘z hissalarini qo‘shib kelmoqdalar. Bular tarixiy-etnografik, madaniy-ma‘rifiy, musiqali, ilmiy-ommabop, ilmiy, axborot va ijtimoiy-xayriya bilan bog‘liq tadbirlarda aniq ko‘rinadi. Turli madaniy markazlar o‘rtasida o‘zaro hamkorlik, madaniy chiqishlar muhim.

Turkiston xalqlari, shu jumladan, o‘zbek va qozoq xalqlari ham yagona Vatan-ko‘hna Turon-Turkistonning boshidan o‘tkazgan siyosiy vaziyatlaridan qa‘tiy nazar, doimo o‘zaro yaqinlashuv, birlashuv, oddiy aytganda bordi-keldi, oldi-berdi tarafdorlari bo‘lganlar. El boshiga kulfat tushgan eng og‘ir davlarda ham ular bir-birlarini tark etmay, o‘zaro yelkadosh bo‘lib turganlar. Shu ma‘noda, markaz raxbari Abu Nasr Forobiyning quyidagi so‘zlarini keltiradi: “Baxtga erishish maqsadida o‘zaro yordam bergan xalq-fazilatli xalqdir. Shu yo‘sinda barcha xalqlar baxtga erishish uchun bir-birlariga yordam bersalar, butun yer yuzi fazilatli bo‘ladi”.<sup>2</sup>

“Bugun mustaqil O‘zbekistonda,-deb yozadi Ukrain madaniy markazi rahbari,- 300 mingdan ziyod ukrainlar yashaydi, ular uchun bu quyoshli, sahovatli va tinch o‘lka ikkinchi Vatan bo‘lib qoldi. Har birimiz do‘stlikni mustahkamlashda, xalqlar

---

<sup>1</sup> Xellemen V. “Russkaya ideya” filosofiya razmishleniY. MGU, Filosofiya 1- 2003. 86-100-betlar.

<sup>2</sup> Xolboyev.T. Do‘stlikda gap ko‘p. O‘zbekiston millatlararo xamjihatlik yo‘lida. –T.: Universitet, 1996. 138-bet.

o‘rtasida o‘zaro hamjihatlik va umumiy uyimiz bo‘lgan O‘zbekistonning gullab-yashnashi va porloq, kelajagi uchun o‘z hissasini qo‘shishga harakat qilamiz”<sup>1</sup>.

Shuningdek, bugun mustaqil O‘zbekistonda 220 mingdan ortiq koreyslar yashaydi. Ular uchun sahovatli va tinch o‘lka ikkinchi Vatan bo‘lib qoldi.<sup>2</sup>

O‘zbekiston Prezidenti I.A. Karimov, ”Milliy g‘oya, milliy mafkurani ishlab chiqish, uni shakllantirish uchun har qaysi millatning eng ilg‘or vakillari, kerak bo‘lsa, mutafakkirlari xalq va Vatan ravnaqi uchun hayotini bag‘ishlaydigan fidoyi ziyolilar mehnat qilishi lozim”<sup>3</sup> -deb ta’kidlaydi.

Respublika baynalminal madaniyat markazi (RBMM) va milliy-madaniy markazlar faoliyati aynan ana shu maqsadga qaratilishi talab etiladi. Bunda ayniqsa ommaviy axborot vositalarining o‘rni salmoqli. Jumladan, O‘zbekiston televideniyesining barcha kanallari, xususan “Axborot”, ”Davr”, ”Assalom, O‘zbekiston”, ”Poytaxt”, dasturlari orqali hamda “Birinchi” telekanalning “O‘zbekiston-umumiy uyimiz”, ”Yagona bayroq ostida”, ”Yagona oilada”, uyg‘ur tilida olib boriladigan “Umid”, qozoq tilida “Jetegen” va “Diydar”, qirg‘iz tilidagi “Aychurek”, tojik tilidagi “Mexrangez” va “Ranginkamon”, tatar tilidagi “Biznen meras” ukrain tilidagi “V dobroy xate”, koreys tilidagi “Chinsen” ko‘rsatuvlari yordamida teletomashabinlarga milliy-madaniy markazlar faoliyati hamda millatlararo do‘stlik va hamjihatlik haqida batafsil axborotlar berib borilishi zarur. Bu ishlarni yanada takomillashtirish talab etiladi.

RBMM O‘zbekiston radiosi hamda qator yetakchi gazeta va jurnallar bilan ham yaqindan hamkorlikda ish olib bormoqda. Xususan, ”Xalq so‘zi”, ”Pravda Vostoka”, ”Toshkent oqshomi”, ”Tashkentskaya Pravda” gazetalarida “Milliy

---

<sup>1</sup> Mansurov-Kovrigenko S., Kovbas M. “Ukrainsko-uzbekskiyе istoki drujbi” -T.: 2001.

<sup>2</sup> Kim I, Yusupova S. Koreyskaya diaspora v Uzbekistane. O‘zbekiston millatlararo hamjihatlik yo‘lida. -T.: Universitet, 1996. 155-bet.

<sup>3</sup>Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi-xalq e‘tiqodi va buyuk kelajakka ishonch. -T.:O‘zbekiston. 2000. 21-bet.

madaniy markazlarda” rukni ostida ularning faoliyati muntazam ravishda keng yoritib berilmoqda. Bulardan tashqari 2000 yilda “Respublika baynalminal madaniyat markazi” nomli maxsus qo‘llanma chop etildi.

O‘zbekiston Respublikasi baynalminal madaniyat markazi tomonidan 1999 yilning yanvar oyidan e‘tiboran “Millatlararo hamjihatlik-barqarorlik omili” mavzuida doimiy amaliy seminar mashg‘ulotlari muntazam ravishda o‘tkazib kelinmoqda. O‘tgan vaqt mobaynida orttirilgan tajriba va bildirilgan taklif va mulohazalarga binoan seminar endilikda “Hamjihatlik va bag‘rikenglik-barqarorlik omili” mavzuida davom ettirilmoqda va barcha mashg‘ulotlar Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha Qo‘mita hamda mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda o‘tkazilmoqda.

Yurtboshimizning “Faxrlanish mumkin va lozim bo‘lgan bebaho qadriyatlar-o‘z mustaqilligimizni, tinchligimizni, jamiyatda millatlar va fuqarolar o‘rtasidagi totuvlikni asrang”,-degan fikrlari mazkur seminar mashg‘ulotlarining bosh g‘oyasi bo‘lib hisoblanadi.

Har yillik seminar dasturlari risola tarzda, o‘tkazilgan mashg‘ulotlar materiallari esa to‘plam tarzida chop etilishi yo‘lga qo‘yilgan. Ularda turli millatlar o‘rtasida milliy istiqlol g‘oyalarini targ‘ib va tashviqot qilishda, tushuntirish ishlarini olib borishda muhim. Lekin bu bilan qanoatlanmaslik kerak. Bu sohada qilinishi kerak bo‘lgan ishlar ko‘p.

Xulosa qilib aytganda, bugun O‘zbekiston Respublikasi ko‘p millatli davlat sifatida millatlararo totuvlik va millatlararo hamjihatlikni milliy istiqlol g‘oyalariga tayangan holda amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda milliy manfaatlar hisobga olinmoqda, ularni qondirish uchun barcha shart-sharoitlar yaratilib berilmoqda. Bunda milliy istiqlol g‘oyasining umuminsoniy mazmuni alohida ahamiyatga ega. Bu g‘oya orqali turli millatlar umummaqsad yo‘lida birlashib, o‘zlarining salohiyatlarini

O‘zbekistonda xuquqiy demokratik, fuqarolik jamiyatini qurish maqsadlarini amalga oshirishga safarbar etmoqdalar.

### **III-BOB. MILLATLARARO MUNOSABATLARNI TAKOMILLASHUVI**

#### **3.1. Millatlararo totuvlik g‘oyasi millatlararo munosabatlarni takomillashtirish omili**

Millatlararo totuvlik va bag‘rikenglik g‘oyalari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida qayd etilgan muhim qoidaga asoslanadi: “O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e‘tiqodi, shaxsi va, ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, qonun oldida tengdirlar”.<sup>1</sup>

Aynan “barcha fuqarolarning bir xil xuquq va erkinliklarga ega ekanligi” haqidagi qoidaga alohida e‘tiborni qaratish lozim. Zero, bunda millatlararo totuvlikni ta‘minlash g‘oyasini amalga oshirish uchun “fuqarolik” asosiy mezon sifatida olingani ahamiyatlidir. Bu barcha millat va elat vakillarini bir huquq va erkinliklarga ega bo‘lishini kafolatlash orqali ularning totuvligini ta‘minlashni anglatadi. “Bu g‘oya jamiyatda yashab, yagona maqsad yo‘lida mehnat qilayotgan turli millat va elatlarga mansub bo‘lgan kishilar o‘rtasida o‘zaro hurmat, do‘stlik va hamjihatlikning ma‘naviy asosidir.”<sup>1</sup>

Millatlararo totuvlik g‘oyasi jamiyat rivojida muhim ahamiyatga ega: 1) turli millatga mansub bo‘lgan fuqarolar o‘rtasida bir-biriga nisbatan ahil bo‘lishga, hurmat bilan qarashga da‘vat etadi. Bu esa turli millat vakillarining bir-birlarini kamsitish yoki o‘zaro loqaydlik bilan qarashdek nosog‘lom illatlarning oldini oladi; 2)

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T.: O‘zbekiston, 2014.

mamlakatda yashayotgan har bir millat vakilining iste'dodi va salohiyatini to'la ro'yobga chiqarish uchun shart-sharoit yaratadi; ularning erkinligini, teng huquqliligini ta'minlashga xizmat qiladi; 3) millatlararo totuvlik bor joyda jamiyatda barqarorlik mavjud bo'ladi, chunki bu g'oya o'zaro hamjihatlikni ta'minlab berishga xizmat qiladi. Turli millat vakillarini o'z mamlakati, Vatan oldida turgan ezgu maqsadlar sari safarbar etadi.

O'z navbatida millatlararo totuvlikni amalga oshirish barcha millat va elat vakillarining tillarini hurmat qilish, urf-odatlarini va an'analarni e'zozlashni, o'zligini saqlab qolish va rivojlanishi uchun sharoit yaratib berishni talab etishini unutmaslik kerak.

Sho'rolar davrida millatlararo totuvlik g'oyasi shunchaki bir shiorga aylangan edi. Amalda esa, turli millatlar o'rtasida munosabatlarga o'zaro nifoq solish, milliy kamsitish, milliy til, urf-odat va an'analarga nisbatan bepisandlik bilan qarash, ularning rivojlanishiga erkinlik bermaslik siyosati makkorona tarzda amalga oshirilgan. Mustaqillik sharoitida bunday amaliyotga chek qo'yildi.

Leonid Levitin o'zining "O'zbekiston tarixiy burilish pallasida" nomli kitobida O'zbekistondagi ko'p millatlilik omili bilan bog'liq ayrim muammolarga e'tiborini qaratadi. U yozadi: "Milliy o'zlikni anglash darajasining oshishi va uning siyosiylashuvi hozirgi davrda jahon hamjamiyati rivojining qonuniyatlaridan biridir. Shu sababli polietnik (ko'pmillatli) davlatlarda mamlakatga nom bergan millat bilan oz sonli elatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar mazkur davlatlar ichki siyosiy barqarorligi va milliy xavfsizligining, ulardagi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot dinamikasining hal qiluvchi shartlaridan biridir"<sup>2</sup>.

---

<sup>1</sup> Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyilari. -T: O'zbekiston, 2000. 59-bet.

<sup>2</sup> Levitin L. O'zbekiston tarixiy burilish pallasida. Prezident Islom Karimov tarafdorlarining tanqidiy mulohazalari. -T.: O'zbekiston, 2001. 172-bet.

Muallif davom etib yozadiki, mustaqillikka erishilgan davrda O‘zbekistonda mamlakatga nom bergan millatning aholi umumiy tarkibidagi ulushi (73,6 foiz) bo‘yicha faqat Turkmanistondan (74, 4 foiz) keyinda bo‘lib, Tojikiston (62,3 foiz), Qirg‘iziston (54 foiz) dan va ayniqsa Qozog‘iston (41,7 foiz) dan ancha ustun bo‘lsada u aslida chinakam ko‘p millatli mamlakatdir. Unda o‘zbeklar bilan bir qatorda yuzdan ortiq elat vakillari yashaydi. 1992 yilda bu sohadagi manzara quyidagicha edi: ruslar-5,5 foiz, tojiklar-5,1 foiz, qozoqlar-4,2 foiz, qoraqalpoqlar-2,0 foiz, tatarlar-2,0 foiz, koreyslar -1,1 foiz, qirg‘izlar-1,0 foiz.<sup>1</sup>

Hozirga kelib, O‘zbekistonda istiqomat qilayotgan ko‘p sonli millat vakillarining umumiy miqdoriy ko‘rsatkichi ancha o‘zgardi. 2-ilovaga qarang.

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, millatlararo totuvlik g‘oyasi O‘zbekiston uchun shunchaki chiroyli shior bo‘lmay, hayotiy ehtiyoj hisoblanadi. Qolaversa, millatlararo totuvlik g‘oyasini o‘zbeklarga xos bo‘lgan milliy tabiati, ichki ma‘naviy dunyosi, falsafasiz tushunish qiyin bo‘ladi. Sho‘rolar tuzumi davrida ham, undan oldin ham, mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab hozirgacha ham milliy mentalitet bilan bog‘liq bo‘lgan “millatlararo totuvlik g‘oyasi” o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘layotganining guvohimiz. Hech kim o‘zbek halqining boshqa millat va xalqlarga nisbatan g‘araz bilan munosabatda bo‘lganligidan tarixiy dalil keltira olmaydi, deb o‘ylaymiz. Tarixnig barcha sinovlaridan o‘zbek xalqi bu sohada ham yuzi yorug‘ bo‘lib o‘tib kelganini va kelayotganini ta’kidlash lozim.

Respublikamiz xalqi ayniqsa, Ikkinchi jaxon urushi yillarida insonparvarlik, olijanoblik, fidoyilikning eng yuqori namunalarini namoyon qildi. O‘sha og‘ir-bir burda non tansiq bo‘lgan yillarda O‘zbekiston urush tufayli uy-joysiz qolgan minglab oilalarga boshpana berdi, qanchadan-qancha yetim-yesirlarning boshini siladi. Bu bilan o‘zbek xalqi o‘zining nimalarga qodir xalq ekanini namoyish etdi.

Urush yillarida O'zbekistonga evakuatsiya qilingan aholini joylashtirish ishlariga jiddiy e'tibor berildi. Urushning dastlabki kunlarida O'zbekistonga 1mln. dan ortiq kishi evakuatsiya qilindi, shulardan 240000 dan ko'prog'i bolalar edi. Shuningdek, dushman egallagan joylardan ko'plab bolalar uylari, jumladan, 23 ta polyak bolalar uyi, 120 ta ispan bolalar uyi va 5 ta harbiy musiqali bilim yurti, bir necha ko'rlar va karlar maktablari O'zbekistonga ko'chirib keltirildi.

Evopunktlarning ma'lumotiga ko'ra, 1941 yil 15 dekabrga qadar 525000 nafar aholi respublikaga evakuatsiya qilinishi va joylashtirilishi rejalashtirilgan bo'lsa, ularning soni ortib borishi natijasida kelgan va joylashtirilgan aholi 665419 nafarni tashkil etgan. Evakuatsiya qilinganlar orasida keksalar, ayollar, bolalar va turli millat vakillariga mansub bo'lgan kishilar bo'lgan. Buni biz birgina Toshkent viloyatining Toshkent tumani misolida ko'rishimiz mumkin. 1942 yil yanvar oyining o'rtalarida Toshkent tumaniga 2712 kishi evakuatsiya qilingan. Ularning 1252 nafari erkaklarni, 1460 nafari ayollarni tashkil etgan. Shulardan: ruslar-1913, ukrainlar-126, beloruslar-33, yahudiylar-569, o'zbeklar -1, armanlar-9, tatarlar-13, polyaklar-6, nemislar-3, greklar-2, boshqirdlar-7, moldavanlar-2, mordvinlar-8, shvedlar-1, chuvashlar-6, estonlar-5 nafarni va boshqa millat vakillari 8 nafarni tashkil etgan.<sup>2</sup>

Jami Toshkent viloyatiga 1942 yil yanvar oyining o'rtalariga kelganlar 5414 kishini tashkil etgan. Ulardan 2341 nafari erkaklar, 3073 nafari ayollar bo'lgan. Ular turli millat kishilari bo'lib, 7 yoshdan 60 yoshga bo'lgan keksalar, ayollar, bolalar edi. Respublikaga evakuatsiya qilinayotgan aholi soni kundan-kunga ortib borgan. 1941 yilning noyabr oyi davomida Ukrainadan O'zbekistonga 54029 nafar (masalan, Odessa, oblastidan-9508, Kiyevdan-7528, Dnepropetrovskdan-4238, Xarkovdan-3490, Vinnitsadan-2810, Jitomirdon-2082) kishi va boshqa yurtlardan evakuatsiya

---

<sup>1</sup> Levitin L. O'zbekiston tarixiy burilish pallasida. -T.: O'zbekiston, 2001. 171-bet.

<sup>2</sup> Ochildiyev A. Milliy g'oya va millatlararo munosabatlar. -T.: 2004. 55-b.

qilingan edi. Respublikaga Rossiya, Moldaviya, Boltiq bo‘yi va Belorussiya respublikalaridan ham ko‘plab kishilar evakuatsiya qilindi.

Urush yillarida Surxondaryo viloyatiga 20 mingdan ortiq aholi keltirilib joylashtirilgan bo‘lsa, ularning 3,5 mingtasi yosh bolalar bo‘lgan.

Evakuatsiya qilingan aholi uchun Samarqand viloyatining Bulung‘ur, Jomboy, Narpay, Pastedarg‘om, va viloyatning boshqa tumanlarida bolalar uylari tashkil etildi. Ularda 4270 nafardan ortiq bola tarbiyalandi.

Buxoro viloyatiga ham urush yillari 150 mingdan ortiq aholi joylashtirildi. Andijon viloyatiga evakuatsiya qilingan 10 minglab aholi joylashtirildi. 1941 yilda Namangan viloyatiga Ukraina, Belorussiya, Boltiq bo‘yi respublikalaridan 19 ming kishi evakuatsiya qilindi. Ularning 1674 nafari ish bilan ta‘minlandi. Boquvchisiz qolgan 1780 kishiga har oyda nafaqa berib turilgan. Namangan tumani xo‘jaliklari Volokolamsk shahridan ko‘chirib keltirilgan bolalar uyini otaliqqa oldilar.

O‘sha paytda ota-onasiz qolgan 300 dan ortiq bolalarga g‘amxo‘rlik ko‘rsatildi. To‘raqo‘rg‘on, Yangiqo‘rg‘on va Pop tumanlarida maxsus bolalar uylari ochilgan.<sup>1</sup>

Qoraqalpog‘istonga 3891 nafar kishi ko‘chirib keltirilgan, 900 ta oila otan-onasidan ajrab qolgan yetim bolalarni o‘z tarbiyasiga olgan. Shuningdek, harbiy xizmatchilarning va ko‘chirib olib kelinganlarning 20,3 ming nafar bolalari bolalar bog‘chasiga, yaslilarga va bolalar uyiga joylashtirilgan. Respublikaning barcha xalqlari qatori qoraqalpog‘istonliklar ham evakuatsiya qilingan aholiga o‘zining munosib yordamini ayamaganlar.<sup>2</sup>

Oddiy o‘zbek temirchisi Shoahmad ota Shomahmudov va Bahri opa insonparvarlikni ulug‘lovchi oila sifatida katta jasorat, qahramonlik, mehribonlik fazilatining yorqin namunasi sifatida turli millatlar tarixida abadiy muhrlandi. Urush

---

<sup>1</sup> Ochildiyev A. Milliy g‘oya va millatlararo munosabatlar. -T.: 2004. 58 bet.

<sup>2</sup> O‘sha asar. 87 bet.



boshlanganda Shoahmad Shomahmudov (1890-1970) va uning xotini Bahri Akromova (1903-1987) Toshkentdagi Telman nomli artelda temir toblovchi bo'lganlar. Ular boshpanasiz qolgan turli millat vakillari bo'lgan 14 bolani o'z tarbiyasiga olishgan: Xabiba, Vova, Shuhrat-rus, Hamidulla-ukrain, Rafiq, Raxmatulla-tatar, Xolida-moldavan, Samug'-chuvash, Yo'ldosh, Ergash-yahudiy, Xalima-qozoq, Qoravoy, Nig'mat, Muazzam, Xakima, Ulug'bek-o'zbek.

Shunday sahovatpesha insonlardan yana biri-Hamid Samadovdir. Oila boshlig'i Hamid Samadov (1910 yil Samarqand viloyatining Kattaqo'rg'on shahrida tug'ilgan) urushning dastlabki kunlarida armiya safida aloqachi, so'ng pulemyotchi bo'lib xizmat etgan. 1944 yil fevralda janglardan birida yaralanib, 2-guruh nogiron sifatida uyga qaytadi. Urushdagi jasorati uchun Qizil Yulduz ordeni va medallari bilan mukofotlanadi. Hamid Samadov hali uylanmagan bo'lishiga qaramay 12 bolani farzandlikka olib, ularni asrab-avaylab tarbiyaladi, bilim berdi, hayotda mehr va sahovat ko'rsatib, ularning o'z o'rinlarini topishlariga ko'maklashdi. Bular turli millat, bolalaridir: Qo'chqor-turkman, Nurmuhammad-tojik, Donat, Ivan, Liza-rus, Jenya-belorus, Kerim-tatar, Arslon, Rashid, Mirali, Karim, Murod-rus.

Urush tugagandan keyin, 1946 yilning aprel oyida 1147 nafar polyak bolasi reja asosida tarbiyachilari bilan, may oyida esa 773 tarbiyalanuvchi, 514 xodim, va ularning oila-a'zolari maxsus, eshelonlarda Polshaga kuzatib qo'yildi. Ularni kuzatish chog'ida Polsha milliy birlik hukumat vakili Ruja xalqimizga o'z minnatdorchiligini bildirib shunday degan edi: "Bugun biz yurtimizga qaytib ketyapmiz, biz o'zimiz bilan sizlar asrab qolgan kelajagimiz-farzandlarimizni olib kelyapmiz." Bundan tashqari, birgina Qarshi shahridan 1946 yil 10 aprelda Moskva-Stalingrad yo'nalishi bilan 588 nafar bolalar o'z uylariga qaytarildi.

Yuqoridagi kabi misollarni ko'plab keltirish mumkin.

Bugungi O‘zbekistonda kechayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar millatlararo munosabatlarda yanada muhim milliy-ma’naviy muhit shaklanayotganidan dalolat bermoqda. Bunday ijobiy muhit o‘zaro hurmat, yuksak madaniyat, yetuklik va komillikka intilish orqali mazmunan boyib bormoqda. Bugungi kunda O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan 36 milliy-madaniy markaz olib borayotgan ishlar ham ana shundan dalolat berib turibdi.

Xullas, millatlararo totuvlik va bag‘rikenglik g‘oyalari mamlakatimizda yashayotgan turli millat vakillarini o‘zaro hamjihat bo‘lib, bir-birlariga nisbatan hurmat tuyg‘ularini mustahkamlashda katta ahamiyatga ega bo‘lmoqda.

Turli xalqlar va millatlar hayotida o‘zaro mushtarak maqsadlar, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurish vazifalarini birgalikda amalga oshirishda jipslashtiruvchi, uyushtiruvchanlik, safarbarlik omili sifatida xizmat qilib kelmoqda.

### **3.2. Yurt tinchligini ta'minlashda millatlararo totuvlikning o'рни**

Vatan ravnaqi va yurt tinchligi g'oyalari bir mamlakatda yashaydigan millat va elat vakillarining maqsad, manfaatlarining o'zaro mushtarakligiga asoslanadi. O'zbekistonda yashayotgan 130 dan ortiq millat va elat vakillari uchun yagona Vatan O'zbekiston hisoblanadi.

Chunki, O'zbekiston unda yashayotgan turli millat vakillari uchun kindik qoni to'kilgan joy, uni kamol toptiradigan, hayotiga ma'no-mazmun baxsh etadigan tabarruk maskan hisoblanadi.

Har bir o'zbekistonlik qaysi millatga mansub bo'lmasin, uning ajdodlaridan avlodlariga qoladigan buyuk meros, eng aziz xotira bo'lib qoladi. "Vatan otabobolarimizning xoki poklari jo bo'lgan vaqti soati yetib har birimiz bosh qo'yadigan muqaddas zamindir."<sup>1</sup>

Vatan ravnaqi va yurt tinchligi g'oyasi o'zining umuminsoniy mazmun va mohiyatiga egaligi bilan ajralib turadi va har bir millat farzandi hayoti bilan bog'liq. Bugungi o'tish davrida uning o'ziga xos mushtarak jihatlari namoyon bo'lmoqda. "O'tish davri-milliy o'zlikning, milliy g'oyaning yangitdan shaklanishi davri. Bizning milliy istiqloq g'oyamiz o'zimizning taraqqiyot strategiyamizga mos, O'zbekistonning rivojlanish, yangi jamiyat barpo etish g'oyasidir. Bu g'oya Vatan taraqqiyoti, yurt

---

<sup>1</sup> Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyilar.T.; O'zbekiston, 2000, 51-bet.

tinchligi, xalq farovonligi yoʻlida barchamizning manfaatimizni ifoda etgan xalq gʻoyasidir.”<sup>1</sup>

Vatan kishilarning yashab turgan, ularning avlod va ajdodlari tugʻilib oʻsgan joyi, hududi, ijtimoiy muhiti, mamlakati.

Vatan bir-birini taqozo etuvchi tashqi muhit va ichki kechinmalar hamda tushunchalarni oʻz ichiga oladi. Tashqi muhit nuqtai nazaridan Vatan kishi yoki avlodlar tugʻilib oʻsgan va kamol topgan joy, zamin oʻlkadir. Vatan ostonadan boshlanadi, deb bejiz aytmaydi xalqimiz. Biroq, kishi ulgʻaygan sayin, uning Vatan haqidagi tushunchasi ham kengayadi. Natijada, tili, eʼtiqodi, urf-odatlar va milliy sifatleri bir boʻlgan avlodlar yashagan va yashayotgan jugʻrofiy muhit Vatanni ifoda etadi. Ichki tushuncha va kechinmalarni koʻzda tutib fikr yuritsak, Vatan tarixiy rivojlanish jarayonida paydo boʻlib, tashqi muhit va davrlar taʼsirida shakllangan va oʻzgarib kelgan ijtimoiy-ruhiy tuygʻudir.<sup>2</sup>

Millatlar oʻrtasidagi iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy aloqalarning oʻsishi avvallari faqat bir elat yoki millat uchun Vatan boʻlgan oʻlkani, shu oʻlkada yashab turgan barcha elat va millatlar uchun Vatanga aylantiradi. Respublikamizda hozir yashayotgan yuzdan ziyod millat va elatlarning Oʻzbekistonni oʻz Vatani deb bilishi ham ana shunday jarayonlar va oʻzgarishlar natijasidir. Shu boisdan, Vatan tushunchasi tor milliy qarashlardan kengroq boʻlib, u bir joy, zamin, oʻlkada yashayotgan kishilarni, ularning millatidan qatʼi nazar birlashtiruvchi ijtimoiy tuygʻudir.

Turli davrlarda yurtimizda chet ellarga ketishga majbur boʻlgan vatandoshlarimizning farzandlari va nevaralari ham Oʻzbekistonni oʻz Vatanimiz deb

---

<sup>1</sup> Quvvatov. Oʻtish davri tafakkuri. T.: Maʼnaviyat, 2002, 13-bet.

ataydilar. Bo‘ o‘rinda milliy-ma‘naviy tushunchalar va an‘analari ko‘proq ta‘sir qilayotgani ayondir.

Vatan, eng avvalo, obektiv muhit, borliq, zamin bilan bog‘liq bo‘lgani uchun kishi ongida aniq tasvir, qiyofa, siymolar tarzida shakllanadi. Mavhum Vatan yo‘q. Vatan har doim aniq ko‘rinishga ega bo‘ladi. Shuning uchun ham, u kishidan aniq va maqsadli munosabatlarni talab etadi. Vatan bir-birimizga ota-bobolarimizga, tariximizga, yon-atrofimizga, qurshab turgan tabiatga va farzandlarimizga bo‘lgan munosabatlarimizda ham namoyon bo‘ladi.

Xalq madaniyati, an‘analari, urf-odatlari, milliy ong ham Vatan tushunchasi bilan mustahkam bog‘liq. Kishining shakllanishida ushbu qadriyatlar yetakchi o‘rin tutgani sababli, ular Vatan tushunchasiga bog‘lanib qolishi tabiiy. Demak, Vatan kishining, avlodlarining butun hayoti, turmush tarzi, ongi, o‘tmishi va kelajagi bilan bog‘liq bo‘lgan keng qamrovli tushunchadir.

Vatan tushunchasi mustaqillik sharoitida alohida ahamiyat kasb etadi. Ma‘lumki, istibdod yillarida hukmron mafkura kishilarimizning ongida asl Vatan tushunchasini buzib, uning o‘rniga mavhum, keng va umumiy Vatan tushunchasini singdirmoqchi bo‘ldi. Masalan, o‘zbek uchun go‘yo Sibir ham Boltiqbo‘yi, O‘zbekiston bilan bir qatorda Vatan edi. ”O‘zbekiston-Vatanim manim ”yoki” “o‘zbeim” deyish millatchilik, milliy cheklanganlik deb baholanar edi. Holbuki, Vatan-muayyan, aniq tushuncha.

Vatan tushunchasi xalqimiz vakillarining anchagina qismida yetarli darajada aniq emasligining birinchi sababi-o‘tmishdagi hukmron mafkura ta‘siri bo‘lsa, ikkinchi sababi-temuriylar zamonidan so‘ng, to XX asrning birinchi choragigacha O‘zbekiston degan yagona jug‘rofiy va siyosiy tushunchaning amalda bo‘lmaganligi, xonliklar amirliklarga bo‘linib ketgan hududlarning ustiga-ustak chorizmning mustamlakasiga aylanishi edi. Mustaqillik ana shu ikki salbiy omilni bekor qilib,

xalqimizda haqiqiy Vatan hissini, tushunchasini mustahkamlamoqda. Endigi dolzarb vazifalarimizdan biri-har bir fuqaromizda Vatanni sevmok, Vatan uchun butun kuch-g'ayratini bag'ishlash

ruhini shakllantirishdir. Vatanning sha'n-shavkati, nomi, mavqei bilan g'ururlanish xislatlarini xalqimiz vakillariga singdirish zarur.

Vatanparvarlik-kishining o'zi tug'ilib o'sgan kamol topgan joy, o'lkaga bo'lgan mehr-muhabbatini, faol munosabatini ifoda etadigan ijtimoiy va ma'naviy-axloqiy xislatlari, fazilatlaridir. Vatanparvarlik aniq muhitda, zaminda va mavjud ma'naviy-axloqiy qadriyatlar asosida shakllanadi. Shaxs vatanparvarlik tuyg'usini yaratmaydi, balki uni qabul qiladi. Chunki vatanparvarlik uzoq tarixiy rivojlanish jarayonida shakllanadigan ijtimoiy tuyg'udir.

Vatanparvarlik kishilarning ijtimoiy va ma'naviy-ahloqiy xislatlarining, fazilatlarining yuksak namoyon bo'lishi hisoblanadi. Zero, ular negizida ota-bobolardan meros qolgan zaminni sevish, urf-odatlarini, qadriyatlarni saqlash, el-yurt ravnaqi uchun dildan mehnat qilib, Vatanni turli tashqi xurujlardan himoya qilish, zarur bo'lsa, uning ozodligi va mustaqilligi uchun jonini ham ayamaslik kabilar yotadi. Vatanparvarlik el-yurt manfaatlariga hizmat qilish, el-yurt manfaatlarini shaxsiy manfaatlardan ustun qo'yish demakdir.

Fidoiylk vatanparvarlikning bosh belgisi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining mustaqil davlat sifatida mustahkamlanishi, uning iqtisodiy, ma'naviy-madaniy taraqqiyoti uchun tinmay mehnat qilish va izlanishni fidoiylk deyishimiz mumkin. Fidoiylk Vatanga sadoqatdan, muhabbatdan boshlanadi. Istagan sohada vatanparvarlik tuyg'usini namoyon qilish mumkin. Tabiatni muhofaza qilish, ota-bobolarimiz qoldirgan madaniy meroslarni to'plash, o'rganish, avaylab saqlash va targ'ib qilish kabilar ham vatanparvarlik hisoblanadi.

Vatanparvarlikning oliy ko‘rinishi jasoratdir. Jasorat kishining Vatan va yurtdoshlari uchun o‘z manfaatlaridan, kerak bo‘lsa jonidan ham kechib namoyon etadigan yuksak ma‘naviy-axloqiy fazilatlaridir. Jasorat xalq farovonligi, ilm-fan va madaniyat ravnaqi, Vatan himoyasi uchun qilingan mehnatda ham o‘zini fido qilish talab etiladigan favqulodda holatlarda ham namoyon bo‘lishi mumkin.

Vatanparvarlik o‘zbek xalqining milliy tuyg‘usini rivojlantirish, milliy yuksaklik g‘oyalarini targ‘ib qilish, mamlakatimizda yashayotgan turli elat va millatlar o‘rtasidagi do‘stlik, tinchlik va ahillikni mustahkamlash uchun kurashishda ham namoyon bo‘ladi. Xuddi shuningdek, u O‘zbekistonda demokratiya va hurfiylikning qaror topishiga g‘ov bo‘layotgan hollarga qarshi kurashishni ham o‘z ichiga oladi.

Mustaqillik sharoitida kishilarda vatanparvarlik hissini uyg‘otish, kengaytirish va mustahkamlash alohida muhim ahamiyat kasb etadi. Muhim vazifa - O‘zbekistondagi har bir insonni millati, dini, tilidan qat’i nazar vatanparvarlik ruhida bu hududning haqiqiy jonkuyarlari etib tarbiyalashdir.

“Har qanday mafkura quyidagi asosiy maqsadlarni ko‘zda tutadi: muayyan g‘oyaga ishontirish; uyushtirish; safarbar etish; ma‘naviy -ruhiy rag‘batlantirish; g‘oyaviy tarbiyalash; g‘oyaviy immunitetni shakllantirish; harakat dasturi bo‘lishi. Mafkura o‘z oldiga qo‘yilgan shu kabi maqsadlarni bajara olsagina, amaliy samara berishi mumkin”.<sup>1</sup> Darhaqiqat, mafkuraviy tarbiya-jiddiy va surunkali jarayondir.

Har bir jamiyat siyosiy hayotida sodir bo‘ladigan jiddiy o‘zgarishlar uning g‘oyasi, axloqi ma‘naviyati va qarashlarida ham sodir bo‘lishi ijobiy natijalarni beradi. Biroq bu qat’iy va muttasil tarbiyaviy-marifiy ishlarni talab qiladi. Chunki odamlarni zamonaviy yangicha fikrlashga o‘rgatish uchun uzoq vaqt talab etiladi.

---

<sup>1</sup> Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillari. -T.: O‘zbekiston, 2000.

Jamiyatning g'oyaviy yangilanishi tarbiyalash va qayta tarbiyalash degan tushunchalarni ham anglatadi. Biz bugun va ertangi kunimizda kechagi dunyoqarash, o'y-hayol, niyatlar bilan yashay olmaymiz. Yangicha fikrlab, yangicha yashasak-g'olib, eskicha fikrlab, eskicha yashayversak mag'lub bo'lamiz. Chunki taraqqiyotga intilgan millatlarga qoloq tafakkur, zararli nuqsonlardan o'zini poklab, olg'a intilyapdi. Bu poygada qaysi millat zamonaning eng ilg'or peshqadam fazilatlariga amal qilsa, o'sha yutadi.

Milliy g'urur tuyg'usi yoshlarimizni katta-katta muvaffaqiyatlarga da'vat etmog'i kerak. Bugungi o'zbek yoshlarining yirik xalqaro sport musobaqalarida, xalqaro fan olimpiadalarida sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritayotgani buning isbotidir. Odamlar qalbida buyuk kelajakka ishonch munosabatlari shakllandi va u tobora chuqur ildiz otib bormoqda.

O'zaro ahil, dili va tili, so'zi va ishi bir millat tez uyushadi. Uning ichida uyushqoqlik ham tez urf bo'ladi. Ahil millat odamlarning yagona maqsad va niyati ularni o'zaro do'st, qon-qarindoshga aylantirib yuboradi. Bir hamqishlog'inikiga, mahalladoshinikiga kelgan hasharchilarning maqsadi, niyati bir-birini qo'llab-quvvatlashi, ahilligi qanday bo'lsa, ahil millat ham o'zini shunday tutadi. Hasharga kelgan kishilar bir-biriga erkin munosabatda bo'lishadi. Har bir ishni erkin muhokama qilishadi. Chunki, har bir aytilgan fikr yaxshi niyatda, umumiy ishni yengillatish uchun aytiladi.

Mustaqillik davrida ham barcha o'zbekistonliklar ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot, fuqarolik jamiyatini qurib yashashga ahd qilishlari zarur. Uni amalga oshirish uchun ahillik zarur. Ahillik va bilim bo'lmagan joyda hatto ezgulikka xizmat qiluvchi demokratiya ham kutilgan natijani bermaydi.

Demokratiya aslida yangi fikr, yangi g'oya, yangi tashabbuslar manbaidir. Biroq, barcha zamon va makonlarda ham eskicha, konservativ fikrlovchilar ko'p



bo'lgan. Yangicha, ilg'or fikrlovchilar esa dastlab ozchilik bo'lib, keyinchalik ularning safi ortib borgan. Hayot qonuniyati shundaki, yangi fikr doim eski fikr bilan kurashib yashaydi. Biz hozir ham unga guvoh bo'lmoqdamiz. Demak, insoniyatning butun erishgan barcha yutuqlari yangi, ilg'or fikrlarning qiynalib bo'lsada, g'alabaga erishib kelayotganining natijasidir.

Vatan uchun fuqarolarning mulki, yoshi, ilmi, kasbi tug'ilgan joyining farqi bo'lmaydi. Millat o'g'il-qizlari ham buning evaziga har kuni o'z Vataniga-O'zbekistonga xizmat qilishga burchlidir.

Bozor iqtisodiyoti tanbal, ishyoqmas, boqimanda odamlarga shafqatsiz. Bundaylar bozor sharoitida o'z o'rnini topolmaydi.

Faol, tinib -tinchimas izlanuvchan, yangilikka intiluvchi odamlarga hozirda barcha yo'llar ochiq. Bir qaraganda bunday odamlar o'zlarini o'ylab, yelib-yugurib, ijod qilib, yangiliklar yaratib, baxtga erishadigandek. Biroq, ular o'zlari bilib, yo bilmay jamiyat va millatning taraqqiyoti bilan bog'liq turli mushkullarni yengillatadilar.

XXI asr odamlardan yangi fazilatlarni-har bir fuqaroning bugungi taraqqiyotimiz tamoyillarini chuqur anglagan holda fikr yuritishni, ilg'or millatlar amal qilayotgan turmush tarzini milliy xususiyatlarimizga moslab qabul qilishimizni talab qilmoqda. XXI asrning sur'ati XX asrnikiga qaraganda tezdir. Buyuk kelajak bizlardan qisqa vaqt ichida ko'p ish qilishni talab etmoqda.

Bugun xalqimiz jahondagi yuzlab millatlar orasida munosib joy oldi. Bizning ijtimoiy hayotimizda erkinlik qaror topmoqda. Ma'lumki, mustamlaka millat ozod emas, tutqun bo'ladi. Tutqun millat ijodkor bo'la olmaydi, mute millat bo'la oladi. Tutqunlik faqat siyosatda emas, ma'naviyatda, mentalitetda ham yaqqol ko'rinadi. Chunki odam yashash, kun ko'rish uchun mustamlakachilar talablariga moslashib o'zidagi mutelik hissini yanada chuqurlashtirib boradi.

Har qanday millat alohida odamlardan tashkil topadi. Demak, har bir odamga xos belgi xususiyatlar oxir-oqibatda millat xarakteri, mentalitetiga ham singadi. Shuning uchun ham, mustamlakachilik sharoitida ozod odamlarning fazilatlari illat, madaniyatsizlik va beodoblik deb, salbiy baholangan bo'lsa, mutelarga xos bo'lgan miskinlik loqaydlik boqimandalik kabi sifatlar esa kamtarlik, xushmuomalalik va odamgarchilik deb ijobiy baholandi. Biz istiqloлга erishganimizdan keyin bunday qarashlarga barham berila boshlandi. Shu ma'noda hozir bizning millatimizda mental jarayonlar evolyusiyasi jarayoni kechmoqda. Bunday sharoitda esa ma'naviy-ruhiy rag'bat nihoyatda zarurdir.

Inson va millat mentaliteti o'zgarib boradi. Bunga fanda ham, dinda ham dalillar bor. Ma'rifparvar bobolarimizning millat ziynati haqidagi tanqidiy fikrlarini eslash kifoY. A. Qodiriyning "O'tgan kunlar" romanida bizning mustamlaka holatiga tushib qolishimizga o'zimizning fe'limiz sabab, degan hasratli fikrlari bor. Bularning barchasi mustaqillik sharofati bilan biz endi shijoatli, ijodkor millatga aylanayotganimizni ko'rish, sezishga qaratilgan bir ishora edi.

Bugun biz jamiyatimiz umumintellektual salohiyatini (tarix, falsafa, iqtisodiyot, musiqa, siyosat, adabiyot, menejment va boshqa sohalar) oshirishimiz zarur. Bugungi kunda har bir fransuz, nemis amerikalik, yapon bilgan umumiy bilimlarni har bir o'zbek ham bilishi lozim.

Demak, ma'rifat, intellektual targ'ibot xalqni maktab, institut universitetdan keyin ham uzluksiz o'qitish, o'rgatish, tarbiyalash, zamonaviy bilimlardan xabardor qilib borish zarur. Zero, bilimli jamiyatgina kuchli jamiyat bo'la oladi.

Ayniqsa, milliy davlatimiz tarixi, hozirgi taraqqiyotimiz va buyuk kelajagimiz haqidagi bilim, tushuncha va tasavvurlarning to'g'ri tushuntirilishi shu masalada umumiy birlikni yuzaga keltiradi. Bu fidokorlikni butun O'zbekistonda bir xilda namoyon bo'lishiga olib keladi.

Yangi xulq-atvor, odatlar hech qachon birdaniga, o'z-o'zidan urf bo'lib kelmagan. YA'ni ular dastlab puxta asoslanib, keyin qatiyatlik bilan joriy etiladi.

Demak, bir tomondan milliy g'oya mavjud urf-odatlarimizga singdira borilishi kerak, ikkinchi tomondan esa mutlaqo yangi, zamonaviy, milliy g'oya asosiga qurilgan urf-odatlarni ilmiy asoslab ilg'or, zamonaviy, bunyodkor xulq-atvor meyorlarini, munosabat shakllarini yaratish kerak. Bu tajriba barcha rivojlangan mamlakatlar tarixida kuzatilgan.

Xulosa qilib aytganda, Vatan ravnaqi va yurt tinchligi g'oyalarning har bir millatga mansub bo'lgan fuqarolarning ishonch va e'tiqodi bo'lishi, Vatan tuyg'usi, O'zbekiston uchun qayg'urish hissi ularning hamjixatligini ta'minlashda muhim omil bo'lib qolishi zarur.

Yurt tinchligi g'oyasi Vatan ravnaqi g'oyasi bilan bog'liq. Tinchlik, osoyishtalik mavjud bo'lgan yoki millatidan qat'i nazar har bir fuqarodan tinchlikni saqlash uchun, uni asrab-avaylash, qadriga yetishga harakat qilish tuyg'usi millatlararo hamjihatlikni ta'minlaydi. Vatan qismatini har bir millat vakili o'zining qismati deb bilishi, Vatanni sevishi, uni kelajak avlodlar uchun ozod va obod, erkin va farovon tarzda qoldirish, milliy munosabatlarda o'zaro ahillik tuyg'ularini mustahkamlab boradi. Vatan tuyg'usi ularni birlashtirib, ulug' maqsadlarni amalga oshirishga yo'naltirib, safarbar etib turuvchi omildir.

## **XULOSA**

Birinchiidan, O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar davlat ahamiyatiga molik masalalardan hisoblanadi. Mamlakatimizda 130 dan ziyod millat va elat vakillari istiqomat qiladilar.

Ikkinchiidan, mustaqillik davrida “Millatlararo totuvlik”, “millatlararo hamjihatlik” g‘oyalariga millatlararo munosabatlardagi asosiy g‘oyalar sifatida alohida ahamiyat berib kelinmoqda. Buning samarasini bugungi ijtimoiy -siyosiy hayotimizda ko‘rib guvohi bo‘lib turibmiz. Mamlakatimizda turli millat vakillari o‘rtasidagi o‘zaro totuvlik jamiyatimiz barqarorligining muhim sharti ekani yuksak qadrlanmoqda. Millatlararo totuvlik ta‘minlangani tufayli demokratik o‘zgarishlarda har bir o‘zbekistonlik fuqaro erkin ishtirok etmoqda.

Uchinchiidan, shubhasiz, turli millatlar mavjud bo‘lgan sharoitda, ularni qanday g‘oyalar maqsadlar birlashtirib turishi muhim o‘rin tutadi. Masalan, millatlararo totuvlik g‘oyasini eng ustuvor maqsad deb yondoshishdan uning asl maqsadini bilib olish mumkin. Millatlararo totuvlik, ahillik, hamjihatlikdan hamma manfaatdor, chunki ular barcha millatlar vakillarining manfaatlariga to‘g‘ri keladi. Shuning uchun, millatlararo totuvlik g‘oyasi bir mamlakatda yashab, umumiy maqsad yo‘lida mehnat qilayotgan turli millat va elatlarga mansub bo‘lgan kishilar o‘rtasidagi hurmat, do‘stlik va hamjihatlikning ma‘naviy asosidir. Ammo ana shu g‘oyaning maqsad va muddoasini hamma ham bir xilda tushunayapti deb bo‘lmaydi. Demak, joylarda milliy istiqlol g‘oyasini o‘rganishga, o‘rgatishga alohida e‘tibor berish

ehtiyoji doimo mavjud bo‘ladi. Chunki, biron bir tuman, shahar va viloyat yo‘qki, faqat bir millatli bo‘lsin. Hayotimiz ko‘p millatlilik omili bilan hamnafas ekan, turli millat vakillari birgalikda mehnat qilayotgan ekanlar, bu masala doimo e‘tiborda bo‘lishi lozim.

To‘rtinchidan, O‘zbekistonning tanlagan taraqqiyot yo‘li, demokratik, fuqarolik jamiyati qurish maqsadlarini, har bir fuqaro oldida turgan umumiy maqsad deyish mumkin. Erkin va farovon hayot, ozod va obod Vatan qurish g‘oyasi milliy istiqlol mafkurasining bosh g‘oyasi sifatida, unda har bir fuqaroning erkinligi, maqsadi, huquq va manfaatlari mujassamlashgan. Bundan tashqari, milliy istiqlol mafkurasining asosiy g‘oyalari bo‘lgan ”Vatan ravnaqi”, “Yurt tinchligi”, “Xalq farovonligi”, “Kamil inson”, “Ijtimoiy hamkorlik”, “Diniy bag‘rikenglik” g‘oyalarining maqsadi ham tushunarli. Shunday g‘oyalar asosida o‘zaro hamjihat bo‘lgan, birgalikda mehnat qilayotgan, ta’lim-tarbiya olayotgan har bir kishidan yomon maqsadlarni, g‘arazli niyatlarni kutib bo‘lmaydi.

Beshinchidan, biz bugun ochiq jamiyatda yashayapmiz. Qolaversa insonlar ham jamiyatlar ham g‘oyalar ham mafkuralar ham xilma-xil. Millatlararo totuvlikni afzal ko‘rib yashash muhim. Lekin, boshqa g‘oyalar kirib kelmayapti, deb bo‘lmaydi. Buyuk davlatchilik shovinizmi, agressiv millatchilik, millatlarni bir-biriga gij-gijlash orqali ular o‘rtasida nizo, nifoq urug‘ini sochish, milliy kamsitish ko‘rinishlari, bir millatni boshqa millatdan ustun qo‘yishga urinish bilan bog‘liq bo‘lgan xatti-harakatlar milliy istiqlol g‘oyasi bilan mutlaqo to‘g‘ri kelmaydi..

Oltinchidan, mustaqillikning afzalligini, milliy istiqlol g‘oyasining ma’no mohiyatini hamma tushunib oldi, deb ayta olmaymiz. Bugun mustaqillikni asrab-avaylash, uni mustahkamlash mamlakat oldida turgan ustuvor maqsadlar sifatida qo‘yilgan bir sharoitda, uning sababini atroflicha tushunish kerak. Mustaqillikni anglash bilan bog‘liq ko‘pgina muammolar ko‘zga tashlanmoqda.

BMI oid quyidagi taklif va mulohazalarni bildirishni lozim topdik:

1. Millatlararo totuvlik ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil bo'lib, uning ahamiyati tobora oshib boradi. Millatlararo totuvlikda milliy manfaat bilan umuminsoniy qadriyat uyg'unligi o'zining aksini topgan;

2. Millatlararo totuvlikning ma'no-mohiyatini turli millatlar hayoti, milliy-ma'naviy qadriyatlari bilan hamohang ekanini kengroq tushuntirish, keng jamoatchilik ongiga singdirishga erishish, ishonch va e'tiqodga aylanib borishni ta'minlash zarur. Bu sohada Respublika baynalminal madaniyat markazining faoliyatini yanada takomillashtirish zarur.

3. Millatlararo munosabatlarni yanada takomillashtirish, turli millatga mansub bo'lgan yosh avlodni milliy g'oyaga sodiqlik ruhida tarbiyalash xalqlar o'rtasida do'stlikni ta'minlash va mustahkamlashga xizmat qiladi.

4. O'zbekistonda yashovchi turli millatlar vakillarining madaniy-ma'naviy ehtiyojlarining qondirilishiga ko'maklashish maqsadida milliy-madaniy markazlar faoliyatini yanada rivojlantirish zarur. Bu ularning bir-birlarini yaqindan bilishlariga yordam beradi.

5. Turli millatlarning o'ziga xos urf-odat va an'analari mavjud. Ular shaklan xilma-xil bo'lsada, ma'no mohiyatida millatlararo totuvlik, vatanparvarlik g'oyalari mujassamlashgan. Bunday an'analarni targ'ib etish millatlararo totuvlik va hamjihatlikni ta'minlashga xizmat qiladi.


## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi.-T.: O‘zbekiston, 2014.
2. Karimov I.A. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura.T.1.-T.:O‘zbekiston,1996.
3. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T. 2.-T.: O‘zbekiston 1996.
4. Karimov I. A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir.T,3-T.: O‘zbekiston, 1996.
5. Karimov I. A. Bunyodkorlik yo‘lidan. T.4-T.:O‘zbekiston, 1996.
6. Karimov I. A. Yangicha fikrlash va ishlash-davr talabi.T.5.-T.:O‘zbekiston, 1997.
7. Karimov I. A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lidan. T.6.-T.:O‘zbekiston, 1998.
8. Karimov I. A. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. T,7.-T.:O‘zbekiston, 1999.
9. Karimov I. A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz ma’sulmiz. T.9.-T.: O‘zbekiston, 2001.
10. Karimov I. A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T.10.-T.: O‘zbekiston, 2002.
11. Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. –T.: 2008.
- 12.** Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. T.: 2010.
13. Ochildiyev Abduvohid. Milliy g‘oya va millatlararo munosabatlar.-T.: «O‘zbekiston» -2204.
14. Abdulatipov R.G. Chelovek. Natsiya, Obshestvo. -M.: Politizdat, 1991.
15. Azizxo‘jayev A.A. Demokratiya-xalq hokimiyati demakdir.-T.: Sharq, 1996.
16. Aripov M.K. Sotsialnaya utopiya kak techeniye obhestvenno-filosofskoy misli v Sredney Azii.-T.: Fan,1989.

17. Atamirzayev O. Genshtke V.,Murtazayeva. R. Uzbekistan mnogonatsionalno‘y istoriko-demograficheskiy aspekt.-T.:Ibn Sino,1998.
18. Atamurodov S. Natsionalnoye samosoznaneniye i internatsionalnoye vospitaniye. -T.: Uzbekiston,1991.
19. Axmad Zakiy Validiy To‘g‘on. Bo‘linganni bo‘ri yer: Turkiston xalqlarinig milliy mustaqilligi uchun kurashi tarixidan: Xotiralar-Boshqird tilidan SH.Turdiyev tarj.-T.: Adolat,1997.
20. Barkamol avlod orzusi (“Kadrlar tayyorlash milliy dasturini “ amalga oshirish borasidagi publitsistik mulohazalar).-T.:Sharq,1998.
21. Boboyev H., G‘ofurov Z. Milliy istiqlol mafkurasi va taraqqiyot.-T.: Yangi asr avlodi, 2001.
22. Geldiyeva A.CH. Natsionalnaya kultura i lichnost. -T.: Uzbekistan, 1993.
23. Dadaxonova K.X.Raximov S. Problemi internatsionalzatsii i mejnatsionalnaya spravedlivost. -T.: Uzbekiston,1992.
24. Djunusov M.S. Natsionalizm v razlichnix izmereniyax. -Alma-ata, Kazaxistan, 1990.
25. Jumayev R.Z. Davlat va jamiyat: Demokratlashtirish yo‘lida:-T.: Sharq, 1998.
26. Ibrohimov. A.,Sultonov X., Jo‘rayev N. Vatan tuyg‘usi.-T.:O‘zbekiston,1996.
27. Imomnazarov M. Milliy ma’naviyatimizning takomil bosqichlari.-T.: Sharq, 1996.
28. Islom: bag‘rikenglik va mutassiblik.-T.: Universitet, 1998.
29. Karimov B., Mira‘zamov K. Millat ravnaqi va til muammolari. -T.: Fan, 1993.
30. Karimov R.K., Karimov A.T. Milliy model muammolari.-T.: Uzbekiston, 1993.
31. Millatlararo hamjihatlik-barqarorlik omili.-T.: 1999..
32. Milliy g‘oya-bizning g‘oY.-T.: 2001.
33. Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar.-T.:2000.




34. Mustaqillik. Izohli ilmiy-ommabop lug‘at.-T.: Sharq, 2006.
35. Mustaqillik-bu xuquq. (Ma’sul muharrir va so‘z boshi muallifi: A.Saidov)-T.: O‘zbekiston, 1997.
36. Nishanov M.N. Obnovleniye duxovnoy jizni natsiy. -T.: Fan, 1991.
37. Natsionalniye otnosheniY. Slovar (Pod obhey redaksiyey A.L. Kalashnikova).-M.: Vlados, 1997.
38. Toffler E. Tretya volna. -M.: Ast, 1999.
39. Farobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri.-T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.
40. Shermuxamedov S. Na yazike yedinstva. -T.: O‘zbekiston, 1991.
41. Yusupov E., Tulenov J., G‘ofurov Z. Milliy masala bo‘yicha falsafiy suhbatlar.-T.: Fan, 1990.
42. Xonazarov Q. Mustaqillik va milliy munosabatlarning rivojlanishi. -T.: “O‘AJBNT” Markazi, 2001.
43. O‘zbekiston millatlararo hamjihatlik yo‘lida. -T.: Universitet, 1996.
44. O‘zbekistonning yangi tarixi. K.3. Mustaqil O‘zbekiston tarixi. -T.: Sharq, 2000.
45. Qirg‘izboyev M. Fuqarolik jamiyati: siyosiy partiyalar, madaniyatlar va mafkuralar.-T.: Sharq, 1997.




## O'zbekiston Respublikasida doimiy yashaydigan aholining milliy tarkibi

| <b>№</b>    | <b>Millatlar</b> | <b>Miqdori</b>    |
|-------------|------------------|-------------------|
| 1           | O'zbeklar        | 25,133,000        |
| 2           | Tojiklar         | 1,237,400         |
| 3           | Ruslar           | 1,053,500         |
| 4           | Qozoqlar         | 977,800           |
| 5           | Qoraqolpoqlar    | 549,200           |
| 6           | Tatarlar         | 275,400           |
| 7           | Qirg'izlar       | 227,400           |
| 8           | Koreyslar        | 166,100           |
| 9           | Turkmanlar       | 152,300           |
| 10          | Ukrainlar        | 97,200            |
| 11          | Armanlar         | 42,000            |
| 12          | Ozorbayjon       | 41,000            |
| 13          | Beloruslar       | 22,200            |
| 14          | Yaxudiylar       | 11,300            |
| 15          | Nemislar         | 6,300             |
| 16          | Moldavanlar      | 5,100             |
| 17          | Gruzinlar        | 8,800             |
| 18          | Litvalar         | 1,200             |
| 19          | Estonlar         | 0,600             |
| 20          | Latishlar        | 0,200             |
| 21          | Boshqalar        | 424,900           |
| <b>JAMI</b> |                  | <b>30,427,900</b> |



## Millatlararo totuvlik g'oyasi



**O‘zbekiston Respublikasida diniy tashkilotlarning  
ro‘yxatga olinishi haqida ma’lumotnoma  
(01.01.2011 yil)**

| <b>№</b> | <b>Diniy konfessiyalar nomi</b>              | <b>Jami</b> |
|----------|--|-------------|
| 1.       | Islom  | 2050        |
| 2.       | Rus Pravoslav cherkovi                       | 38          |
| 3.       | Rim-katolik cherkovi                         | 5           |
| 4.       | Yevangel xristian-baptistlar cherkovi        | 23          |
| 5.       | To‘liq injil xristianlar cherkovi            | 21          |
| 6.       | Yettinchi kun xristian-adventistlar cherkovi | 9           |
| 7.       | Yevangel-lyuteranlar cherkovi                | 3           |
| 8.       | Novoapostol cherkovi                         | 4           |
| 9.       | Iyegov guvohlari cherkovi                    | 1           |
| 10.      | Arman Apostollik cherkovi                    | 2           |
| 11.      | Golos Bojij xristian cherkovi                | 1           |
| 12.      | Koreys protestant cherkovlari                | 52          |
| 13.      | Yahudiy diniy jamoalari                      | 8           |
| 14.      | Bahoiy diniy jamoalari                       | 6           |
| 15.      | Krishnani anglash jamiyati                   | 1           |
| 16.      | Budda ibodatxonasi                           | 1           |
| 17.      | Bibliya kitob jamiyati tashkiloti            | 1           |
|          | <b>O‘zbekiston bo‘yicha jami</b>             | <b>2226</b> |